



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUXANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**"TO'QIMACHILIK TEXNOLOGIYASI" KAFEDRASI**

**Bitiruv malakaviy ishi**

Bajardi: 6-09 MTSMT  
Nurlibayeva Z.

**Gazlamalarning turlari**

Rahbar: ass. Sattorova N. N.

Maslahatchi: k.o'q. G'iyosova D. R.

Kafedra mudiri: dots. Nurboyev R. X.

FAKULTET DEKANI: dots. Temirova M. I.

БУХАРА –2013

## MUNDARIJA

Kirish.....	.....
I. Texnologik qism.....	.....
I-1. Gazlamaning to`ldirish ko`rsatkichlari.....	.....
I-2. Gazlamaning tavsifi.....	.....
I-3. Ipning tavsifi.....	.....
I-4. Xom ashyni tanlash va izoh berish.....	.....
I-5. Yigirish tizimini tanlash va asoslash.....	.....
I-6. Mashinalarni texnologik zanjirini tanlash.....	.....
I-7. Yigirish rejasini ishlab chiqish.....	.....
I-8. Yarim mahsulotlar va ip yo`g`onliklari cho`zishni zanjir bo`yicha hisoblash.....	.....
I-9. Ipning pishitilishini hisoblash.....	.....
I-10. O`timlar bo`yicha ishchi qismlari tezlik va tezlanishini hisoblash.....	.....
I-11. O`ramlar hajmini hisoblash.....	.....
I-12. O`timlar bo`yicha mashinalarning nazariy ish unumdorligini hisoblash	.....
I-13. Rejalashtirilgan va rejalahtirilmagan to`xtovlarni hisoblash.....	.....
I-14. O`timlar bo`yicha aralashmadagi chiqindi miqdori va ip chiqish miqdorini aniqlash.....	.....
I-15. O`timlar bo`yicha to`ldirish koeffitsientini hisoblash.....	.....
I-16. O`timlar bo`yicha soatlik topshiriqni hisoblash.....	.....
I-17. O`timlar bo`yicha mashinalar sonini aniqlash.....	.....
I-18. Yigirish rejasini qayta hisoblash.....	.....
I-19. Chiqindilarni ishlash uchun mashinalarni va maydonni hisoblash.....	.....
I-20. Paxta tolasini saqlaydigan omborning hajmini hisoblash.....	.....
II. Hayot faoliyati xavfsizligi qismi.....	.....
II-1. To`qimachilik korxonalarida shovqinni kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo`llari.....	.....
III. O`quv-metodik kompleks qismi.....	.....
III-1. Gazlamaning o`ng va teskri tomonini aniqlash .....	.....
Xulosa .....	.....
Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	.....

## **Kirish.**

Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta,uran, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda.bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar va envestorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Uning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga oxir oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi.

Shubha yo'q jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha shart-sharoitlar mavjud. Avvalambor keyingi davr mobaynida mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatining puxta poydevorini moliya-bank tiziminig ishonchli boshqaruv mexanizmlarini o'z vaqtida shakllantirib va mustahkamlab olganimiz bunga kafolat va asos bo'lib xizmat qilishi muqarrardir.

Aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Biz uchun o'ta dolzarb bo'lган bu masalani yehishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga xixmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarida chorvachilikni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib bergenini hech kim inkor etolmaydi.

Avvalambor, fan va texnikaning ilg‘or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi chegaralarni ochib berib, o‘zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga so‘zsiz katta hissa qo‘sheyotganiga bugun barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. Lekin odamzot tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo‘lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ayrim siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy quroq sifatida ishlatilayotganini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Odamlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma’naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Yosh avlodimizning qalbi va ongi asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma’no-mazmuni va asl sabablarini chuqr anglashi, o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqealar haqida haqqoniy ma’lumotlarga, eng muhimi, o‘z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo‘lishiga erishish ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo‘lishi darkor.

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jahbalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajakni tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta’lim olayotgan yoshlar

## I-1.Gazlamaning to`ldirish ko`rsatkichlari.

Jadval №1

Gazlamaning nomi		1	Dioganal	
Artikul		2	3006	
Gazlama eni		3	72	
Ipning chiziqli zichligi	Tanda	4	42	
	Arqoq	5	72	
	Milk	6	42	
Iplarning soni	Jami	7	2082	
	Milk	8	48	
10 smdag'i iplar soni	$P_T$	9	276	
	$P_A$	10	208	
Iplarning ishlatilgani	$Q_T$	11	10	
	$Q_A$	12	5.6	
Tig`	Nomeri	13	90	
	Trishdagi iplar soni	Fon	14	
		Milk	15	
O`rilishi		16	Sarja 3/3	
Dastgoh turi		17	AT	
Gazlama yuza qismining zichligi		18	296	
Chiqindilar miqdori	Tanda	19	1.02	
	Arqoq	20	2.2	
100pagon metr gazlama uchun ishlatiladigan iplar miqdori	Tanda	21	9.572	
	Arqoq	22	11.422	


[3]

## I-1. Gazlamaning tavsifi. Dioganal

Dioganal-pishitilmagan karda kalava ipidan sarja o'rilishda to'qilgan gazlama eni 63 sm,  $1m^2$  gazlamaning massasi 240-290 gr. Telogreykalar, gimnastyorkalar, maxsus kiyimlar va hokazolar tikish uchun ishlatiladi. Bir oz tililuvchan, "qiyshiq ip" bo'yicha ancha cho'ziluvchan, tanda bo'yicha 6% gacha kirishadi.

Kiyimlik gazlamalar gruppasiga kostyumlar, plashlar, krutkalar, palto-maxsus kiyimlar tikish uchun mo'ljallangan gazlamalar kiradi. Kiyimlik gazlama;ar nisbiy zichligi 60dan 100%gacha va undan yuqori bo'lgan karda kalava ipidan to'qiladi,  $1m^2$  gazlamaning massasi 250-300 gr.

Kiyimlik gazlamalar viskoza, kapron va shtepel tolalar aralashtirilib ham to'qiladi. Pishiq, turg'un, strukturali, bir oz cho'ziluvchan bo'lgani uchun kiyimlik gazlamalarni bichish, tukish va dazmollash uncha qiyin emas. Preyskurantga ko'ra, kiyimlik gazlamalar beshta kichik gruppaga: sidirg'a, maxsus gul bositgan, melanj-guldor, qishki gruppalarga bo'linadi.



[9]

### I-3. Ipning tavsifi

Jadval №2

Ip turi		1	Tanda			Arqoq		
Chiziqli zichligi,teks		2	42			72		
Ruxsat etilgan kondension yo`g`onlik,teks		3	+2.5 -2.5			+2.5 -2.5		
Navi		4	I	II	III	I	II	III
Yakka ipning namunasi	Yuk ta`sirida uzilish	5	12.5	11.3	10.2	11.2	10.3	9.4
	gs/teks	6	12.4	11.3	10.2	11.4	10.5	9.6
	Variatsiya koeffitsienti	7	12.5	15	17.5	12.5	15	17.5
	Sifat ko`rsatkich	8	0.99	0.75	0.6	0.91	0.7	0.55
	Yuk ta`sirida uzilish	9	10	9	8.3	9.3	8.8	8
	gs/teks	10	10.2	9.2	8.5	9.5	9	8.2
	Variatsiya koeffitsienti	11	4.6	5.9	7.1	4.6	5.9	7.1
	Sifat ko`rsatkich	12	2.23	1.57	1.23	2.07	1.53	1.16
	100 metr ipning tekshirish natijasi							

#### **I-4. Xom ashyoni tanlash va izoh berish.**

Bitiruv malakaviy ishda berilganlarga ko'ra mahsulot assortimenti va ip navlari tanlaniladi. Hozir o'rta tolali paxtaning 30 ga yaqin navi, ingichka tolali paxtaning 10 dan ortiq navi jumhurriyatimiz dalalarida ekilmoqda. Bunday ko'plab nav paxta tolalaridan ishlab chiqariladigan iplarning yo'g'onligi ham turli-tuman. Shuning uchun loyihalanadigan fabrikani ma'lum yo'g'onlikdagi ip ishlab chiqarish uchun to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Yigiriladigan ip tannarxining 70-90% ini tolaning narxi egallaydi. Tolalarning turlari bo'yicha narxlari ham har xil. Shu tufayli loyihaning eng asosiy qismlaridan biri bu tolani to'g'ri tanlash hisoblanadi.

Davlat standarti bo'yicha paxta tolsi navlari tolaning shtapel uzunligi, yo'g'onligi va nisbiy uzish yukiga bog'liq holda tiplarga bo'linadi. Ingichka tolali paxta uchun 1-3tip, o'rta tolali paxta uchun 4-5tip mavjud. Paxta tolasining har xil navidan tuzilgan qo'shilmalar navlanish deyiladi. Har qaysi tip paxta uchun ipning vazifasi va yigiruv tizimiga qarab tip navlanishlar bo'ladi. Tip navlanishlar ma'lumotnomalar va ayrim taraqqiy qilgan korxonalarning ishi asosida tip navlari ishlab chiqilgan. Har bir nav tola uchun me'yorlangan ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, bunda tola tarkibidagi nuqson va chiqindilar hamda boshqa fizik-mexanik ko'rsatkichlar Davlat standarti 3279-76 bilan qonunlashtirilgan. Sortirovkada keltirilgan arabcha rakamlar bilan paxtaning tiplari, lotincha raqamlar bilan paxtaning navlari belgilangan.

Ikkinchi tomondan olinadigan ipning sifati va fizik-mexanik ko'rsatkichlari olingan tolaning xossalariiga bevosita bog'liq: tola qanchalik sifatli bo'lsa, undan olingan ipning sifati shuncha yuqori bo'ladi. Lekin o'rtacha yo'g'onlikdagi ip olish uchun yuqori navlardagi paxta tolsi qabul qilinsa, ipning sifati yaxshi, ammo tannarxi baland bo'ladi. Shuning uchun ma'lum yo'g'onlikdagi ip olish uchun shunday tola tanlash kerakki, ishlab chiqarilgan sifat ko'rsatkichlari standartlar talabiga to'liq javob bergen holda

arzon bo'lsin. Tola tarkibini tanlashda uni aralashma qilib ishlatishi ko'zda tutiladi. Aralashma tarkibiga bir nechta yonma-yon turgan paxta navlarini qabul qilish mumkin, undan tashqari, hozir paxta tolalari bilan kimyoviy tolalarni aralashtirib ishlatish yaxshi samara bermoqda, chunki tabiiy toalalar bilan kimyoviy tolalardan qo'shib olingan ip hamda gazlamalarning tashqi ko'rinishi va sifati yaxshi bo'lmoqda.

Hozir ekiladigan paxta navlari ma'lum tiplarga ajratilgan, va har bir navi 6 sortga bo'lingan. Paxta tolasining har bir sorti ikkinchi sortidan pishganligi va mustahkamligi bilan ajraladi.

Paxta tolasining texnologik xususiyatlari.

Jadval №3

Paxta turi	1	6-tip	
Seleksiya navi	2	3038	
Terim turi	3	Qo`lda	
Tola navi	4	II	III
Namligi %	5	5.9	5.8
Shtapel uzunligi,mm	6	31.7	31.7
Variatsiya koeffitsienti, %	7	-	-
Pishiqlik koeffitsienti, %	8	1.9	1.7
Chiziqli zichligi,mteks	9	169	155
Yuk ta`sirida chidamliligi,sN	10	3.9	3.5
Yuk ta`sirida uzilishi,sN/tek	11	23.1	22.6
Tarkibidagi chiqindi miqdori,%	12	3.7	4.4

## Aralashma tarkibini tanlash.

1. Tolaning o`rtacha yo`g`onligi:

$$T_{T/A} = \frac{T_I 65}{100} + \frac{T_{II} 30}{100} + \frac{\frac{T_I + T_{II}}{2} 5}{100} = \frac{169 \cdot 65}{100} + \frac{155 \cdot 30}{100} + \frac{\frac{168 + 155}{2} \cdot 5}{100} = \\ 109.85 + 46.5 + 8.1 = 164 \text{ mteks} = 0.164 \text{ teks}$$

Bu yerda:  $T_I$  – II navdagisi tolanning yo`g`onligi

$T_{II}$  – III navdagisi tolanning yo`g`onligi

2. Tolaning o`rtacha yuk ta`sirida chidamliligi:

$$P_{T/A} = \frac{P_I 65}{100} + \frac{P_{II} 30}{100} + \frac{\frac{P_I + P_{II}}{2} 5}{100} = \frac{3.9 \cdot 65}{100} + \frac{3.5 \cdot 30}{100} + \frac{\frac{3.9 + 3.5}{2} \cdot 5}{100} = 2.5 + \\ 1.05 + 0.18 = 3.7 \text{ sN}$$

Bu yerda:  $P_I$  – II navdagisi tolanning yuk ta`sirida chidamliligi

$P_{II}$  – III navdagisi tolanning yuk ta`sirida chidamliligi

3. Tolaning o`rtacha shtapel uzunligi:

$$L_{sh(T/A)} = \frac{L_I 65}{100} + \frac{L_{II} 30}{100} + \frac{\frac{L_I + L_{II}}{2} 5}{100} = \frac{31.7 \cdot 65}{100} + \frac{31.7 \cdot 30}{100} + \frac{\frac{31.7 + 31.7}{2} \cdot 5}{100} = \\ 20.6 + 9.51 + 1.6 = 31.7 \text{ mm}$$

Bu yerda:  $L_I$  – II navdagisi tolanning shtapel uzunligi

$L_{II}$  – III navdagisi tolanning shtapel uzunligi

4. Ipning kritik pishitilishini professor A.N.Solovyov formulasiga asosan hisoblaymiz.

$$\alpha_{kr} = \frac{31.6}{100} \left[ \frac{(1120 - 70 \cdot P_{T/A}) P_{T/A}}{L_{sh(T/A)}} + \frac{57.2}{\sqrt{T_{ip}}} \right]$$

Tanda uchun:  $\alpha_{kr} = 0.316 \left[ \frac{(1120 - 70 \cdot 3.7) \cdot 3.7}{31.7} + \frac{57.2}{\sqrt{42}} \right] = 0.316(100.5 + 8.8) = 0.316 \cdot 113.8 = 34.5$

Arqoq uchun:  $\alpha_{kr} = 0.316 \left[ \frac{(1120 - 70 \cdot 3.7) \cdot 3.7}{31.7} + \frac{57.2}{\sqrt{72}} \right] = 0.316(100.5 + 6.7) = 0.316 \cdot 111.7 = 34.5$

Bu yerda:  $\alpha_{kr}$  – ipning kritik pishitilishi

$P_{T/A}$  – tolanning yuk ta`sirida chidamliligi, sN

$L_{sh(T/A)}$  – tolanning shtapel uzunligi, mm

$T_{ip}$  – ipning chiziqli zichligi, teks

5.  $f = \alpha_t - \alpha_{kr}$

Tanda uchun:  $\alpha_t = 46$   $f = 46 - 34.5 = 11.5$ ;  $k = 0.88$

Arqoq uchun:  $\alpha_t = 43.3$   $f = 43.3 - 33.87 = 9.43$   $k = 0.83$

Bu yerda:  $\alpha_t$  – jadvaldagi pishitish koefitsienti [4,5]

6. Ipning nisbiy pishiqligii aniqlash:

$$R_0 = \frac{P_{T/A}}{T_{T/A}} \left[ 1 - 0.0375 \cdot H_0 - \frac{2.65}{\sqrt{\frac{T_{ip}}{T_{T/A}}}} \right] \cdot \left( 1 - \frac{5}{L_{sh}(T/A)} \right) k \cdot \eta, sN/teks$$

Tanda uchun:

$$R_0 = \frac{3.7}{0.164} \left[ 1 - 0.0375 \cdot 4.5 - \frac{2.65}{\sqrt{\frac{42}{0.164}}} \right] \cdot \left( 1 - \frac{5}{31.7} \right) 0.88 \cdot 1 \\ = 22.56 \cdot 0.68 \cdot 0.84 \cdot 0.88 \cdot 1 = 11.4 sN/teks$$

Arqoq uchun:

$$R_0 = \frac{3.7}{0.164} \left[ 1 - 0.0375 \cdot 5 - \frac{2.65}{\sqrt{\frac{72}{0.164}}} \right] \cdot \left( 1 - \frac{5}{31.7} \right) 0.83 \cdot 1 \\ = 22.56 \cdot 0.69 \cdot 0.84 \cdot 0.83 \cdot 1 = 10.8 sN/teks$$

Bu yerda:  $R_0$  – ipning nisbiy pishiqligi, sN/teks

$H_0$  – ipning solishtirma notekisligi (karda tizimida  $4.5 \div 5$ , qayta tarashda  $3.5 \div 4$ )

$k$  – pishitishga tegishli koefitsient

$\eta$  – mashina va uskunalarining holatini belgilash koefitsienti  $0.85 \div 1$

$$7. \exists \mu = R_0 - R_T \quad \exists \mu = 0.3 \div 0.6; \quad \exists \mu = R_0 > R_T$$

Tanda uchun:  $\exists \mu = 11.4 - 11.1 = 0.3 sN$

Arqoq uchun:  $\exists \mu = 10.8 - 10.3 = 0.5 sN$

Bu yerda:  $\exists \mu$  – ehtiyyot mustahkamligi, sN

$R_0$  – ipning nisbiy pishiqligi, sN/teks

$R_T$  – jadvaldagi nisbiy pishiqlik, sN/teks

Xulosa .

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda tur navlarni tanlashda eng avval ishlab chiqariladigan ip nimaga ishlatilishi, uning yo'g'onligi, navi hamda fabrikadagi bor paxtalarning turlari, navlari hisobga oldim. Aralashma tarkibini uzoq vaqt bir xil saqlab qolish va fabrikaning yaxshi ishlashini ta'minlash uchun paxta partiyalarining soni ko'p bo'lishi, ishlatiladigan va almashtiriladigan partiyalarining asosiy ko'rsatkichlari bir-biri bilan almashtirganda aralashma xossasi deyarli o'zgarmasligi kerak. Aralashma va tolani tanlagandan keyin uni tekshirib ko`rdim. Buning natijasida tanlangan seleksiya navining to`la ehtiyyot mustahkamligi ko`rsatkichlariga to`la javob bera oladi. [4]

Va albatta ushbu seleksiya navi har tomonlama aytilgan talablarga va standartlarga mos keladi.

### **I-5. Yigirish tizimini tanlash va asoslash.**

Ip yigirish uchun tanlangan mashinalar va ularda bajariladigan texnologik jarayonlar majmui yigirish tizmi deyiladi. Ma`lumki, bir nechta yigirish tizimi mavjud bo`lib, ularda har xil yo`g`onlikdagi, turli maqsadlarda ishlatiladigan iplar olinadi. Paxta tolasidan ip olish texnologiyasining bosqichlari tola turlariga, ipning qanday maqsadlarda ishlatilishiga va qo'llaniladigan mashinalarning turlariga bog`liq yigirishda quyidagi asosiy tizimlar qo'llaniladi: karda, qayta tarash va apparat. Bu tizimlar bir-biridan tarash usuli va mahsulotni ingichkalash usuli bilan farq qiladi.

Bundan tashqari melanj tizimi ham mavjud bo`lib, unda melanj gazlamalar ishlab chiqariladi. Bu gazlamalar alohida ranglangan iplardan yoki tolalardan yigirib olingan iplardan tayyorlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan yigirish tizimlari tuzilishi bo'yicha turli texnologik mashinalar zanjirini o'z ichiga oladi.

Bu tizimlar bir-biridan tarash usuli va mahsulotning ingichkalash usuli bilan farq qiladi. Menga berilgan bitiruv malakaviy ishimda tanda ipining chiziqli zichligi  $T_T = 42\text{teks}$ , arqoq ipining chiziqli zichligi  $T_A = 72\text{teks}$  ga teng. Bunday o'rta yo`g`onlikdagi iplarni karda tizimida ishlab chiqarish mumkin. Shuning uchun men karda tizimini tanladim.

### **I-6.Mashinalar texnologik zanjirini tanlash va ularga tavsif berish.**

Mashinalarning texnologik zanjirini yangi texnika, texnologiyaga asoslanib, ma`lumotnomha va ilg`or ishlab chiqarish korxonalari qo'llanmasiga, eng taraqqiy qilgan korxonalarining ish tajribasini hisobga olgan holda texnologik zanjir tanlaniladi.

O'rta tolali paxtani karda tizimida pnevmomexanik usulda yigirish.

*AP-18* – avtomatik toy titgich  
*P-1* – chiqindi ta'minlagich  
*SN-3* – aralashtiruvchi mashina  
*ON-6-4* – kiya tozalagich  
*GR-8* – buylama titkilagich  
*ON-6-4* – kiya tozalagich  
*RVP-2* – pnevmatik tola taksimlagich  
*MT* – savash mashinasi  
*ChMD-4, ChMD-5* – tarash mashinasi  
*L2-50-1* – pilta mashinasi(I-o'tim)  
*L2-50-220, L2-50-220 U* – pilta mashinasi(II-o'tim)  
*PPM-120, PPM-160* – pnevmomexanik yigirish mashinasi

„TRÜTZSCHLER” firmasi texnologik zanjiri bo'yicha karda tizimida pnevmomexanik usulga yigirish

*BLENDOMAT BDT 019,BDT 020,BO-A* -avtomatik toy titgich  
*BX, BO-R-chiqindi taminlagich*  
*BR-COU-(LVSAB)-kondensor*  
*Sekuromat SP-EM,SP-MF-metall tutgich*  
*TV-425-ventilator*  
*Maxi Flo Cl-P-dastlabki tozalovchi mashina*  
*Multi Mixxer MX-8,MX-U10-aralashtiruvchi mashina*  
*Cleonamat Cl C3,Cl C4-tozalovchi mashina*  
*Dustex SP-DX-changsizlantiruvchi mashina(TV-425 ventilator bilan)*  
*DK-803,DK-903-tarash mashinasi*  
*HS-1000-pilta mashinasi (1-o'tim)*  
*HSR-1000-pilta mashinasi(2-o'tim)*  
*Schlafhorst SE-11-288, -pnevmomexanik yigirish mashinasi*

Mashina va ilg'or „TRÜTZSCHLER” firmasining texnologik zanjirga asoslanib quyidagi mashinalarni tanladim.

*BLENDOMAT BDT 019*-avtomatik toy titgich  
*BX-E -chiqindi taminlagich*  
*BR-COU-(LVSAB)-kondensor*  
*Sekuromat SC-metall tutgich*  
*Maxi Flo-dastlabki tozalovchi mashina*  
*Multi Mixxer MSM6,8-aralashtiruvchi mashina*  
*Cleonamat Cl<sub>x</sub> Cl<sub>4</sub>-tozalovchi mashina*  
*Dustex DK-changsizlantiruvchi mashina(TV-425 ventilator bilan)*  
*DK-903-tarash mashinasi*  
*HS-1000-pilta mashinasi (1-o'tim)*  
*RSBD-45-pilta mashinasi(2-o'tim)*  
*Schlafhorst SE-11-288 -pnevmomexanik yigirish mashinasi [4,21]*

*Blendomat BDT-019* markali mashinaning texnik tavsifi.

Ish unumdorligi ,kg/soat.....	1200-1500
Toylar soni,dona.....	45-240
O`rnatilgan quvvat,kVt.....	14.1
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	
uzunligi.....	50270
eni .....	5164
balandligi.....	2900
Mashinaning massasi,kg.....	3230

Paxtani avtomatik ravishda titib ta`minlovchi ushbu mashinani qo'llash paxta bilan avtomatik ta'manlash masalasini hal qilish bilan birga o'zidan keyingi mashinalarni bir me'yorda ta'minlaydi, sortirovka tarkibiga qo'yiladigan toy paxta sonini ko'paytiradi., aralashmaning tarkibini yaxshilaydi, paxtaning keyingi mashinalardayaxshi tozalanishiga imkon beradi. Bu mashina 45-240 tagacha yerga o`rnatilgan toy paxtaning ustidan avtomatik usulda titib, keyingi mashinalarga uzatadi.

*BX* markali mashinaning texnik tavsifi.

Ish unumdorligi ,kg/soat.....	100
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	
uzunligi.....	5265
eni .....	1464
balandligi.....	2250

Bu mashina toy paxtadan qo'lida uzib tashlangan paxta bo'laklari, uzuq qaytimlarni titib, aralashtirib, biroz tozalab kayingi mashinalarga bir maromda uzatish uchun xizmat qiladi.

*BR-COU* markali mashinaning texnik tavsifi.

Ish unumdorligi ,m <sup>3</sup> /soat.....	2000-6500
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	
uzunligi.....	1100
eni .....	1464
balandligi.....	3200 25-8.25

Kondensorning asosiy vazifasi tozalasg aggregatining barcha nuqtalarida intensiv changsizlantirish, mahsulotni uzatish uchun qo'llaniladi. Kondensorda paxta bo'lakchalari katta tezlik bilan to'rli barabanga keladi va shu hisobdan changlar va xas-cho'p nuqsonlardan tozalanadi, chang xas-cho'plar, chiqindilar, undan keyin havo orqali filtr qurolmasiga uzatiladi.

*Securomat SC* markali mashinaning texnik tavsifi.

Ish unumdorligi ,kg/soat.....	1000
O`rnatilgan quvvat,kVt	
modul .....	2.81
mashina.....	13.9
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	
uzunligi+8modul.....	11940
eni .....	1000
balandligi.....	4663
Ishchi eni.....	1200
Mashinaning massasi,kg.....	1210

*Maxi flo* markali mashinaning texnik tavsifi

Ish,unumdorligi,kg/soat.....	800
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	
uzunligi.....	1400
eni .....	1760
balandligi.....	2100
Ishchi eni,mm.....	1760

*Multi Mixer MSM6,8markali* mashinaning texnik tavsifi

Bunkerlar soni. dona.....	8
Bunker eni, mm.....	1600
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	
uzunligi.....	5633
eni .....	2264
balandligi.....	4500

*Cleonamat Cl<sub>x</sub> Cl<sub>4</sub>* markali mashinaning texnik tavsifi

Ish unumdorligi,kg/soat.....	800
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	
uzunligi.....	2995
eni.....	2264
balandligi.....	1250
O`rnatilgan quvvat, kvt.....	14.7

*Dustex DK* markali mashinaning texnik tavsifi

Ish unumdorligi,kg/soat.....	800
Mashinaning gabarit o`lchamlari,mm	

uzunligi.....	2980
eni.....	2150
balandligi.....	1864

*DK-903* markali tarash mashinasining texnik tavsifi

Ish unumdorligi,kg/soat.....	120-140
Pilta yo'g'onligi,kteks.....	3-7
Ajratuvchi baraban diametri, mm.....	708
Bosh baraban aylanish chastotasi, ayl/min.....	900
Umumiy cho'zish.....	80-300
Ajratuvchi baraban tezligi, m/min.....	96-150
Toz diametri, mm.....	450-1000
Toz uzunligi, mm.....	900-1000
Mashinaning gabarit o'lchamlari,mm	
uzunligi.....	3759
eni.....	3783

*HS-1000* markali pilta mashinasining texnik tavsifi

Ish unumdorligi,kg/soat.....	250
Chiqarishlar soni.....	1
Pilta yo'g'onligi, kteks.....	1.25-7
Umumiy cho'zish.....	4-11
Qo'shilishlar soni.....	6-8
Chiqarish tezligi m/min.....	1000
Chiqarishda toz o'lchamlari,mm.....	250-1000
Old silindr diametri,mm.....	50
Toz balandligi,mm.....	1500
Mashinaning gabarit o'lchamlari,mm	
uzunligi.....	8530
eni.....	3000

*RSB D45* markali pilta mashinasining texnik tavsifi.

Tolaning maksimal uzunligi,mm.....	10-80
Qo'shilishlar soni,dona.....	8
Cho'zish,marta.....	4.5-11.6
Cho'zish asbobi turi.....	4/3
Ta`minlashdagi piltaning chiziqli zichligi,kteks.....	12-50
Chiqishdagi piltaning chiziqli zichligi,kteks.....	1.25-7
Chiqishdagi tezligi,m/min.....	1100
Old silindr Diametri,mm.....	38
Tos diametri,mm	
kirishda.....	600-1000
chiqishda.....	600-1000
Tos balandligi,mm.....	1000-1520
O'rnatilgan quvvat,kVt.....	0.26 [21]

Gabarit o'lchami,mm	
uzunligi.....	7830
eni.....	2700
SE 11-288 markali yigirish mashinasining texnik tavsifi.	
Ishlanadigan tolaning uzunligi,mm.....	60
Ipnin g chiziqli zichligi,teks.....	200-10
Umumiy cho'zish,marta.....	196-500
Kameralar soni, dona.....	288
Har bir seksiyada.....	24
Kameralar orasidagi masofa ,mm.....	220
Kameraning ning aylanislar soni,ayl/min.....	170000
Kamera diametri,mm.....	24,25,26,28
Gabarit o'lchamlari,mm	
uzunligi.....	31660
eni.....	1950

### I-7.Yigirish rejasini ishlab chiqish.

**Yigiruv rejası** – ip ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar majmuasidir.

Yigiruv rejasini ishlab chiqishdan oldin yigirish tizimlari va ularda qo'llaniladigan hamma mashinalarni tanlash ishlari bajarilgan bo'lishi kerak. Yigirish rejasiga mahsulotlarning yo'g'onligi, qo'shilish sonlari, bosqichlar bo'yicha cho'zish miqdorlari, pishitilish darajalari va pishitish koeffisientlari, asosiy ishchi qismlarning aylanish tezliklari, galtaklarning o'lchamlari va og'irligi, mashinalarning foydali ish koeffisientlari, mashinalarning nazariy va amaliy ish unumdarligi kiradi. Yigirish rejasini ishlab chiqish uchun har bir olingan ko'rsatkichni atroflicha asoslash kerak. Odatda, har bir ko'rsatkichni tanlashda yig'ma ma'lumotlardan, ilmiy tadqiqot institutlarining ish natijalaridan, fabrikaning ish tajribalaridan foydalilanildi.

Texnologik jarayonlarga ta`sir qiluvchi omillardan asosiyлари: cho'zish miqdori, pishitish darajasi va urchuqlarning aylanishi yoki silindrning tezligi, bu yerda cho'zish asboblarning quvvatlarini tuliqroq ishlatalishga, mashinaning ish unumdonligi, chiqaruvchi qismlarining tezligini oshirish hisobiga yuqori bo'lishini ta`minlashga harakat qildim.

### **I-8.Yarim mahsulotlar va ipning yo'g'onliklari cho'zishni zanjir bo`yicha hisoblash.**

#### **1. Tarash mashinasi. DK-903**

a) Texnik tasnifga asosan.

$E=80-300 \quad T_p = 3 \div 7 \text{ kteks.}$

b) Ma`lumotnomaga asosan.

$T_p = 4 \text{ kteks.}$

$E = 107.5$

c) Amaliyotga asosan.

$T_p = 3 \div 7 \text{ kteks}$

$E = 120$

d) Loyihada qabul qilaman.

$T_{P(T/A)} = 7 \text{ kteks}, E = 110$

bunda,  $T_p$  – piltaning yo'g'onligi, teks

$E$ -umumiy cho'zilish

#### **2.Piltalash mashinasi: I o'tim HS-1000**

a) Texnik tasnifga asosan.

$T_p = 1.25 \div 7 \text{ kteks.}$

$d = 6 \div 8$

$E = 4-11$

b) Ma`lumotnomaga asosan.

$T_p = 4 \text{ kteks.}$

$E = 6$

c) Amaliyotga asosan.

$T_p = 5 \text{ kteks.}$

$d = 8$

$E = 10$

d) Loyihada qabul qilaman.

Tanda  $E = 7 \quad d = 8$

$$T_{P(T/A)} = \frac{T_p d}{E} = \frac{7 \cdot 8}{8} = 7 \text{ kteks}$$

bunda  $T_{P(T/A)}$  – tanda va arqoq iplari uchun piltaning chiziqli zichligi, kteks

$d$  – pilta qo`shishlar soni

$E$  – umumiy cho'zilish

[4,21]

### **3. Piltalash mashinasi: II o`tim *RSBD -45***

a) Texnik tasnifga asosan.

$T_p = 1.25 \div 7$  kteks.

$$d = 6 \div 8$$

$$E = 4 \div 11$$

b) Ma`lumotnomaga asosan.

$T_p = 4$  kteks.

$$E = 6$$

c) Amaliyotga asosan.

$$T_p = 1.25 \div 7$$
 kteks.

$$d = 8$$

$$E = 10$$

d) Loyihada qabul qilaman.

Tanda  $E = 8$   $d = 8$

$$T_{P(T/A)} = \frac{T_p d}{E} = \frac{7 \cdot 8}{8} = 7 \text{ kteks}$$

bunda  $T_{P(T/A)}$  – tanda va arqoq iplari uchun piltaning chiziqli zichligi, kteks

$d$  – pilta qo`shishlar soni

$E$  – umumiyl cho`zilish

### **4. Pnevmomexanik yigirish mashinasi. *SE-11-288***

a) Texnik tasnifga asosan.

$$T_{ip} = 0.2 \div 0.01 \text{ kteks}, E = 196 \div 1500, d = 1$$

b) Ma`lumotnomaga asosan.

$$T_{ip} = 0.042 \div 0.05 \text{ kteks}, E = 95.2 \div 80$$

c) Amaliyotga asosan.

$$T_{ip} = 10 \div 200 \text{ kteks}, E = 200, d = 1$$

d) Loyihada qabul qilaman.

$$\text{Tanda: } E = \frac{T_p}{T_{ip}} = \frac{7}{0.042} = 166 \text{ marta}$$

$$\text{Arqoq: } E = \frac{T_p}{T_{ip}} = \frac{7}{0.072} = 97 \text{ marta}$$

bunda  $E$  – umumiyl cho`zilishi,

$T_{p,k}$  – piltaning yo`g'onligi, teks,

Tip – ipning yo`g'onligi, teks.

### **I-9.Ipning pishitilishini hisoblash.**

#### **1.Pnevmomexanik yigirish mashinasi. *SE-11-288***

a) Texnik tasnifga asosan.

$$K = 250 \div 1600 \text{ bur/m}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan.

$$\text{Tanda: } \alpha_T = 46 \quad \text{Arqoq: } \alpha_T = 43.3$$

[4,21]

c) Amaliyotga asosan.

$$K = 700 \text{ bur}/m$$

d) Loyihada qabul qilaman.

$$\text{Tanda: } K = \frac{\alpha_T \cdot 100}{\sqrt{T_{ip}}} = \frac{46 \cdot 100}{\sqrt{42}} = 708 \text{ bur}/m$$

$$\text{Arqoq: } K = \frac{\alpha_T \cdot 100}{\sqrt{T_{ip}}} = \frac{43.3 \cdot 100}{\sqrt{72}} = 510 \text{ bur}/m$$

bunda  $\alpha_T$  – pishitish koeffitsient

$T_{ip}$  –tanda va arqoq iplarining chiziqli zichligi,teks

### I-10.O`timlar bo`yicha ishchi qismlari tezlik va tezlanishini hisoblash

#### 1. Tarash mashinasi DK-903

a) Texnik tasnifga asosan

$$A_n = 120 \text{ kg/soat}, d_{a.b} = 700 \text{ mm}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan

$$A_n = 33 \div 35 \text{ kg/soat},$$

c) Amaliyotga asosan

$$A_n = 100 \text{ kg/soat}, d_{ab} = 700 \text{ mm}$$

d) Loyihada qabul qilaman

$$A_n = 120 \text{ kg/soat},$$

$$n_{a.b} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi d_{a.b} T_p} = \frac{80 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.7 \cdot 7 \cdot 1.2} = 72.2 \text{ ayl/min}$$

$$v_{a.b} = \pi d_{a.b} n_{a.b} = 3.14 \cdot 0.7 \cdot 72.2 = 159 \text{ m/min}$$

Bunda:  $A_n$  –tarash mashinasining nazariy ish unumdarligi,kg/soat

$d_{a.b}$  –ajratuvchi baraban diametri,mm

$T_p$  –piltaning chiziqli zichligi,kteks

#### 2. Piltalash mashinasi: I o'tim HS-1000

a) Texnik tasnifga asosan

$$A_n = 218 \frac{\text{kg}}{\text{soat}}, d_{o.s} = 40 \text{ mm}, v_{o.s} = 1000 \text{ m/min}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan

$$v_{o.s} = 600 \text{ m/min} A_n = 158.4 \frac{\text{kg}}{\text{soat}}$$

c) Amaliyotga asosan

$$d_{o.s} = 40 \text{ mm}, v_{o.s} = 700 \text{ m/min}$$

d) Loyihada qabul qilaman

$$n_{o.s} = \frac{v_{o.s}}{\pi d_{o.s}} = \frac{600}{3.14 \cdot 0.04} = 4777 \frac{\text{ayl}}{\text{min}}$$

$$v_{o.s} = \pi d_{o.s} n_{o.s} = 3.14 \cdot 0.04 \cdot 4777 = 600 \text{ m/min}$$

Bunda:  $v_{o.s}$  –old silindr tezligi,m/min

$d_{o.s}$  –old silindr diametri,mm

#### 3. Piltalash mashinasi: II o'tim RSBD-45

[4,21]

a) Texnik tasnifga asosan

$$A_n = 218 \text{ kg/soat}, \quad d_{o.s} = 38 \text{ mm}, \quad v_{o.s} = 550 \div 1000 \text{ m/min}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan

$$v_{o.s} = 600 \text{ m/min} \quad A_n = 158.4 \text{ kg/soat}$$

c) Amaliyotga asosan

$$d_{o.s} = 38 \text{ mm}, \quad v_{o.s} = 600 \text{ m/min}$$

d) Loyihada qabul qilaman

$$n_{o.s} = \frac{v_{o.s}}{\pi d_{o.s}} = \frac{600}{3.14 \cdot 0.038} = 5029 \frac{\text{ayl}}{\text{min}}$$

$$v_{o.s} = \pi d_{o.s} n_{o.s} = 3.14 \cdot 0.038 \cdot 5029 = 631.6 \text{ m/min}$$

Bunda:  $v_{o.s}$  – old silindr tezligi, m/min

$d_{o.s}$  – old silindr diametri, mm

#### 4.Pnevmomexanik yigirish mashinasi. SE-11-288

a) Texnik tasnifga asosan

$$n_k = 170000 \frac{\text{ayl}}{\text{min}}, \quad d = 28 \text{ mm}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan

$$n_k = 36000 \frac{\text{ayl}}{\text{min}},$$

c) Amaliyotga asosan

$$d = 28 \text{ mm}, \quad n_k = 90000 \text{ ayl/min}$$

d) Loyihada qabul qilaman

$$\text{tanda: } v_{o.s} = \frac{n_k}{K} = \frac{90000}{708} = 127 \text{ m/min}, \quad n_{o.s} = \frac{v_{o.s}}{\pi d_{o.s}} = \frac{127}{3.14 \cdot 0.028} =$$

1444 ayl/min

$$\text{arqoq: } v_{o.s} = \frac{n_k}{K} = \frac{90000}{510} = 176.5 \text{ m/min}, \quad n_{o.s} = \frac{v_{o.s}}{\pi d_{o.s}} = \frac{176.5}{3.14 \cdot 0.028} =$$

2007 ayl/min

Bunda:  $v_{o.s}$  – old silindr tezligi, m/min

$d_{o.s}$  – old silindr diametri, mm

$n_k$  – kameraning aylanish chastotasi, ayl/min

$K$  – tanda va arqoq iplarining buramlar soni, bur/m

## Yigiruv rejasining qisqa jadvali

Jadval № 4

Mashinalar nomi	Mashinalar rusumi	Chiziqli zichligi, kteks		Qo'shilishlar soni,d	Umumiy cho'zish,E	Pishitish intensivligi		Chiqaruvchi ishchi qismlar tezlik va tezlanishi		
		$T_{kir}$	$T_{chiq}$			$K, bur/m$	$\alpha_T$	v,m/min	n, ayl/min	$n_{kam}, ayl/min$
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Tarash	<i>DK-903</i>	-	7	-	110	-	-	159	72.2	-
Pilta I o'tim	<i>HS-1000</i>	7	7	8	8	-	-	600	4777	-
Pilta II o'tim	<i>RSB D 45</i>	7	7	8	8	-	-	600	5029	-
Pnevmmome xanik yigirish	<i>SE-11-288</i>	7	0.042 0.072	1	166 97	708 510	46 43.3	127 176.5	1444 2007	90000

### I-11.O`ramlar hajmini hisoblash.

#### 1. Tarash mashinasi **DK-903**

a) Texnik tavsifga asosan:

$$H_T = 1000 \div 1500 \text{mm}, d_T = 450 \div 1000 \text{mm}, G_p = 49 \div 60 \text{kg}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan:

$$H_T = 913 \text{mm}, d_T = 456 \text{mm}, G_p = 13.6 \text{kg}$$

c) Amaliyotga asosan:

$$G_p = 40 \text{kg} \quad H_T = 1050 \text{mm}, \quad d_T = 600 \text{mm},$$

d) Loyihada qabul qilaman:

$$H_T = 1050 \text{mm}, \quad d_T = 600 \text{mm}, \\ G_p = 45 \text{kg}$$

#### 2. Pilta mashinasi **HS-1000** I o`tim

a) Texnik tavsifga asosan:

$$H_T = 1000 \div 1500 \text{mm}, \quad d_T = 600 \div 1000 \text{mm}, \quad G_p = 10 \div 15 \text{kg}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan:

$$H_T = 500 \text{mm}, \quad d_T = 350 \text{mm}, \quad G_p = 8 \text{kg}$$

c) Amaliyotga asosan:

$$G_p = 40 \text{kg}$$

d) Loyihada qabul qilaman:

$$H_T = 1070 \text{mm}, \quad d_T = 600 \text{mm}, \\ G_p = 40 \text{kg}$$

#### 3. Piltalash mashinasi II o`tim **RSBD-45**

a) Texnik tavsifga asosan:

$$H_T = 1000 \div 1500 \text{mm}, \quad d_T = 360 \text{mm}, \quad G_p = 10 \div 15 \text{kg}$$

b) Ma`lumotnomaga asosan:

$$H_T = 500 \text{mm}, \quad d_T = 350 \text{mm}, \quad G_p = 8 \text{kg}$$

c) Amaliyotga asosan:

$$H_T = 1070 \text{mm}, \quad d_T = 360 \text{mm}, \\ G_p = 14 \text{ kg}$$

- d) Loyihada qabul qilaman:  
 $H_T = 1070\text{mm}$ ,  $d_T = 360\text{mm}$ ,  
 $G_p = 14 \text{ kg}$

#### **4. Yigirish mashinasi SE-11-288**

- a) Texnik tavsifga asosan:  
 $G_{ip}=2\text{-}3\text{kg}$
- b) Ma'lumotnomaga asosan:  
 $G_{ip}=1.3\text{-}2\text{kg}$
- c) Amaliyotga asosan;  
 $G_{ip}=3\text{kg}$
- d) loyihada qabul qilaman;  
 $G_{ip}=3\text{kg}$

### **I-12.O`timlar bo`yicha mashinalarning nazariy ish unumdorligini hisoblash.**

#### **1. Tarash mashinasi DK-903**

- a) Texnik tavsifga asosan:  
 $A_n = 120\text{kg/soat}$
- b) Ma'lumotnomaga asosan:  
 $A_n = 33 \div 35 \text{ kg/soat}$
- c) Amaliyotga asosan:  
 $A_n = 100\text{kg/soat}$
- d) Loyihada qabul qilaman:

$$A_n = \frac{60\pi n_{a.b} d_{a.b} T_p}{1000^2} = \frac{60 \cdot 3.14 \cdot 0.704 \cdot 87 \cdot 7000}{1000 \cdot 1000} = 80\text{kg/soat}$$

Bunda:  $d_{a.b}$  – ajratuvchi baraban diametri,mm

$T_p$  – piltaning chiziqli zichligi,kteks

$n_{a.b}$  – ajratuvchi baraban aylanishlar soni,ayl/min

#### **2. Piltalash mashinasi I o`tim HS-1000**

- a) Texnik tavsifga asosan:  
 $A_n = 250 \text{ kg/soat}$
- b) Ma'lumotnomaga asosan:  
 $A_n = 158.4 \text{ kg/soat}$
- c) Amaliyoga asosan:  
 $A_n = 250\text{kg/soat}$
- d) Loyihada qabul qilaman:

$$A_n = \frac{60\pi n_{o.s} d_{o.s} T_p}{1000^2} = \frac{60 \cdot 3.14 \cdot 4777 \cdot 0.04 \cdot 7}{1000} = 251.9\text{kg/soat}$$

Bunda:  $d_{o.s}$  – old silindr diametri,mm

$T_p$  – piltaning chiziqli zichligi,kteks

$n_{o.s}$  – old silindr aylanishlar soni,ayl/min

#### **3. Piltalash mashinasi (II o`tim ) RSB D 45**

- a) Texnik tavsifga asosan:

$$A_n = 250 \text{ kg/soat}$$

[4,21]

b) Ma`lumotnomaga asosan:

$$A_n = 95 \text{ kg/soat}$$

c) Amaliyoga asosan:

$$A_n = 250 \text{ kg/soat}$$

d) Loyihada qabul qilaman:

$$A_n = \frac{60\pi n_{o.s} d_{o.s} T_p}{1000^2} = \frac{60 \cdot 3.14 \cdot 7 \cdot 0.04 \cdot 5029}{1000} = 265.3 \text{ kg/soat}$$

Bunda:  $d_{o.s}$  –old silindr diametri,mm

$T_p$  –piltaning chiziqli zichligi,kteks

$n_{o.s}$  –old silindr aylanishlar soni,ayl/min

[4,21]

#### 4. Pnevmomexanik yigirish mashinasi SE-11-288

a) Texnik tavsifga asosan:

$$A_n = 0.080 \div 0.020 \text{ kg/soat}$$
 bitta kamera uchun

b) Ma`lumotnomaga asosan:

$$A_n = 18.4 \div 24.9 \text{ kg/soat}$$

c) Amaliyoga asosan:

$$A_n = 0.035 \text{ kg/soat}$$

d) Loyihada qabul qilaman:

Tanda:  $A_n = \frac{60n_k T_{ip}}{K \cdot 1000^2} = \frac{60 \cdot 90000 \cdot 42}{708 \cdot 1000^2} = 0.32 \text{ kg/soat}$

bitta kamera uchun

$$A_{um} = A_n \cdot m = 0.32 \cdot 288 = 92.16 \text{ kg/soat}$$

Arqoq:  $A_n = \frac{60n_k T_{ip}}{K \cdot 1000^2} = \frac{60 \cdot 90000 \cdot 72}{510 \cdot 1000^2} = 0.76 \text{ kg/soat}$  bitta

kamera uchun

$$A_{um} = A_n \cdot m = 0.76 \cdot 288 = 218.88 \text{ kg/soat}$$

Bunda:  $K$  –ipning pishtilishi,bur/m

$T_{ip}$  –ipning chiziqli zichligi,teks

$n_{ur}$  –kameraning aylanishlar soni,ayl/min

$m$  – kameralar soni

#### I-13. Rejalahshtirilgan va rejalahshtirilmagan to`xtovlarni hisoblash.

##### Tarash mashinasi

##### Me`yorlash xaritasi

##### I. Mashinaning tavsifi.

Pilta taxlovchi moslama qo`shuvchi vallar diametri, $d_p$ ,mm	50
Piltaning chiziqli zichligi,kteks.....	7
Tos diametri,mm.....	600
Tos balandligi,mm.....	1050
Ajratuvchi baraban uzatmalaridagi o`zgarmas son,C.....	0.886
Ajratuvchi baraban diametri, $d_{a.b}$ ,mm.....	704

Ajratuvchi baraban va pilta taxlovchi moslama yassilovchi valiklari  
orasidagi xususiy cho`zish,e.....1.2

## II. Mahsulot tavsifi.

Almashtiruvchi shester nya tishlar soni, $z_x$ .....	81
Chiqindilar chiqimi, $U, \%$ .....	8.67
Tosdagi pilta og`irligi, $G_p, \text{kg}$ .....	40
1 soatda mashinada taram va pilta uzilishlari soni, $ch_{u.t},$ .....	0.3

## III. Tashkiliy sharoit tavsifi.

Smena davomida tarashlar soni.....	1
Smena davomiyligi, $T_{sm}, \text{min}$ .....	480

## IV. Hisoblar.

Ish unumdorlikni hisoblash

Ajratuvchi baraban aylanish tezlanishi

$$n_{a.b} = C \cdot z_x = 0.886 \cdot 81 = 71.7 \text{ ayl/min}$$

Mashinaning nazariy ish unumdorligi

$$A = \frac{\pi d_{a.b} \cdot n_{a.b} \cdot 60 \cdot e \cdot T_p}{1000 \cdot 1000 \cdot 1000} = \frac{0.188 \cdot d_{a.b} \cdot n_{a.b} \cdot e \cdot T_p}{1000 \cdot 1000};$$

$$A = \frac{0.188 \cdot 704 \cdot 71.7 \cdot 7000 \cdot 1.2}{1000 \cdot 1000} = 80 \text{ kg/soat}$$

Foydali vaqt koeffitsienti hisobi.

Tos ishlanguncha ketgan vaqt

$$t_m = \frac{60 \cdot G_p}{A} = \frac{60 \cdot 40}{80} = 30 \text{ min}$$

Smenada tarash va pilta uzilishlar soni

$$ch_{u.t} = ch_{u.t} \cdot T_{sm} = 0.3 \cdot 8 = 2.4 \text{ kg}$$

Smenada mashinada ishlangan piltali toslar soni

$$ch_t = \frac{T_{sm} - (T_{x.k} + T_{p.n})}{t_m} = \frac{480 - (7 + 2.5)}{30} = 15.68$$

Qoplanmaydigan yordamchi vaqt,  $t_{y.q}$

Jadval № 6

Ish usullari	Vaqt normasi,s	1 ta tosdagi hodisalar soni	Umumi vaqt,s
Taram va pilta uzilishini bartaraf etish	30	2.4:15.68	4.6
Jami			4.6=0.076min

$$K_a = \frac{t_m}{t_m + t_{y.q}} = \frac{30}{30 + 0.076} = 0.997.$$

[5,21]

Ish joyiga xizmat ko`rsatish vaqtি  $T_{x.k}$ 

Jadval №

Ishlar	Vaqt normasi,s	Smenada mashinadagi hodisalar soni	Smenada mashinadagi umumiyl vaqt,s
Mashinadagi tarashlar	200	1	200
Tarashdan keyin mashinani ishga tushirish	40	1	40
Mashinani profilaktik ko`rik va joriy ta`mirlash	-	-	180
Jami			420=7min

[5,21]

Shaxsiy ishlarga ketgan vaqt 2.5 min

$$K_b = \frac{T_{sm} - (T_{x.k} + T_{p.n})}{T_{sm}} = \frac{480 - (7 + 2.5)}{480} = 0.98$$

Tarash mashinasi operatorining bandliligi vaqtি

Jadval № 8

Ish usullari va ishlar	Vaqt normasi,s	Smenada mashinadagi mashinalar soni	Smenada mashinadagi umumiyl vaqt,s
Piltali ishlangan toslarni yetkazish	5	3.6	18.0
Taram va pilta uzilishlarini bartaraf etish	30	2.4	72
Smena boshida va tushlikdan so`ng mashinani ishga tushirish	30	2	60
Ta`minlash qismidan shamollatish	30	8	240
Mashinani chiqarish qismidan shamollatish	30	8	240
Mashinani yon tomonini	20	2	40

shamollatish			
Qo'shuvchi valiklar tozalagichidan momiqlarni olish	15	2	30
Ajratuvchi baraban valiklaridan momiqlarni olish	25	2	50
Smenani qabul qilish va topshirish	10	1	10
Jami	$T_{z.r} = 760 = 12.66 \text{ min}$		

Tarash mashinasi operatorining bandlilik vaqtி

$$t_{z.r} = \frac{T_{z.r}}{ch_t} = \frac{12.66}{15.68} = 0.8$$

Tarash mashinasi operatori xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan maksimal mashinalar soni

$$n_{max} = \frac{T_{sm}}{T_{z.r}} \cdot K_{z.r} = \frac{480}{12.66} \cdot 0.87 = 33$$

$K_{z.r}$  – vaqtni hisobga olmagan holda tarash mashinasidagi aktiv nazoratni va o'timlarni bandliligini hisobga oluvchi koeffitsient.  $K_{z.r} = 0.8 - 0.9$ .

$$n_{max} = \frac{480}{12.66} \cdot 0.87 = 33$$

Tarash mashinasining operatorining bandlilik vaqtி (bitta mashinada)

$$K_z = \frac{t_{z.r}}{(t_m + t_{v.n}) \cdot K_{z.r}} = \frac{0.8}{(30 + 0.076) \cdot 0.87} = 0.03$$

Interpolyatsiya metodi yordamida  $K_s$  koeffitsientni  $n = 25$  topamiz,  $K_z = 0.028$

$$K_s = 1.0459 + \frac{(1.0501 - 1.0459)}{74} = 1.046$$

Tarash mashinasi operatori xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan maksimal tarash mashinalari soni

$$n_{max} = \frac{T_{sm}}{T_{z.r}} \cdot K_{z.r} \cdot K_s \cdot K_b = \frac{480}{12.66} \cdot 0.87 \cdot 1.046 \cdot 0.98 = 33.81$$

Tarash mashinalariga operatorning xizmat ko'rsatish me'yori  $H_0 = 34$  ta mashina deb qabul qilinadi.

$$K_a = \frac{t_m}{(t_m + t_{v.n}) \cdot K_s} = \frac{30}{(30 + 0.076) \cdot 1.046} = 0.954 \quad [5,21]$$

$$FVK = K_a \cdot K_b = 0.954 \cdot 0.98 = 0.934$$

Tarash mashinasi operatori unumdorlik normasi hisobi

$$UN = A \cdot FVK = 80 \cdot 0.934 = 74.8 \text{ kg/soat}$$

Tarash mashinasi operatorining ishlab chiqarish normasi

$$IChN = UN \cdot H_0 = 74.8 \cdot 74 = 5535 \text{ kg/soat}$$

### Pnevmomexanik yigirish mashinasi

#### Me`yorlash xaritasi

Halqali yigirish mashinasi chiziqli zichligi, 42 va 72 teks

##### I. Mashina tavsifi.

Mashinada yigiruv kameralar soni, m..... 288

Kameraning aylanish chastotasi,  $n_{ur}$ , ayl/min..... 90000

##### II. Mahsulot tavsifi.

1m ipdag'i buramlar soni..... 708; 510

Piltaning chiziqli zichligi  $T_p$  kteks..... 44; 72

Tozdagi pilta og'irligi,  $G_p$ ; gr..... 14000

Bobinadagi ip og'irligi,  $G_{ip}$ ..... 3000

1 soatda 1000 ta kameradagi ipning uzilishlar soni,  $ch_u$ ..... 80

Uzilishlar soni..... 5

##### III. Tashkiliy sharoitlar tavsifi.

Smena davomiyligi,  $T_{sm}$ , min..... 480

Nazoratlar notekisligini hisobga oluvchi koeffitsient,  $K_{obx}$ ..... 1.7

Yigiruvchining marshrut uzunligi,  $L_m$ , m..... 65

Yigiruvchining harakat tezligi,  $v_r$ , m/s..... 0.7

##### IV. Hisoblar.

Nazariy ish unumdorlik hisoblash

1m dagi buramlar soni

$$\text{Tanda: } K = \frac{\alpha_T \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{46 \cdot 100}{\sqrt{42}} = 708 \text{ bur/m}$$

$$\text{Arqoq: } K = \frac{\alpha_T \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{43.3 \cdot 100}{\sqrt{72}} = 510 \text{ bur/m}$$

Bitta kameradagi nazariy ish unumdorlik

$$\text{Tanda: } A = \frac{60 \cdot n_{ur} \cdot T}{K \cdot 1000 \cdot 1000} = \frac{60 \cdot 90000 \cdot 42}{708 \cdot 1000 \cdot 1000} = 0.032 \text{ kg/soat}$$

$$\text{Arqoq: } A = \frac{60 \cdot n_{ur} \cdot T}{K \cdot 1000 \cdot 1000} = \frac{60 \cdot 90000 \cdot 72}{510 \cdot 1000 \cdot 1000} = 0.762 \text{ kg/soat}$$

288 ta kameradagi nazariy ish unumdorlik

$$\text{Tanda: } A_n = A \cdot m = 0.032 \cdot 288 = 9.2 \text{ kg/soat}$$

$$\text{Arqoq: } A_n = A \cdot m = 0.762 \cdot 288 = 219 \text{ kg/soat}$$

Foydali vaqt koeffitsientini hisoblash

Bobina ishlagunga ketgan vaqt

$$\text{Tanda: } t_n = \frac{G_{ip} \cdot 60}{A_n} = 3000 \cdot \frac{60}{320} = 562.5 \text{ min}$$

$$\text{Arqoq: } t_n = \frac{G_{ip} \cdot 60}{A_n} = 3000 \cdot \frac{60}{762} = 236 \text{ min}$$

Ish joyiga xizmat ko`rsatish vaqt,  $T_{ob}$

Jadval № 9

Ishlar	Vaqt normasi,min	Smenada mashinadagi hodisalar soni	Smenada mashinadagi umumiy vaqt,min
Mashinada joriy ta`mirlash va profilaktik ko`rik	5	-	5
Jami			29

$$K_b = \frac{T_{sm} - T_{ob}}{T_{sm}} = \frac{480 - 29}{480} = 0.939$$

Smenada 100ta kamerada ishlangan toslarni almashtirishda ish usullarining takrorlanishi;

$$\text{Tanda: } ch_t = \frac{A_n \cdot K_b \cdot T_{sm} \cdot 100}{G_{p,k}} = \frac{320 \cdot 0.929 \cdot 8 \cdot 100}{14000} = 16.99$$

$$\text{Arqoq: } ch_t = \frac{A_n \cdot K_b \cdot T_{sm} \cdot 100}{G_{p,k}} = \frac{762 \cdot 0.929 \cdot 8 \cdot 100}{14000} = 40.45$$

Pilta uzilishini bartaraf etish

$$\text{Tanda: } ch'_{ol} = 0.1 \cdot ch_{ol} \cdot T_{sm} = 0.1 \cdot 5 \cdot 8 = 4$$

Ip uzilishlarini bartaraf etish

$$ch_{on} = 0.1 \cdot ch_{on} \cdot T_{sm} = 0.1 \cdot 80 \cdot 8 = 64$$

Ishlangan bobinalarni olish

$$\text{Tanda: } ch_b = \frac{A_n \cdot K_b \cdot T_{sm} \cdot 100}{m} = \frac{320 \cdot 0.929 \cdot 8 \cdot 100}{3000} = 79.3$$

$$\text{Arqoq: } ch_b = \frac{A_n \cdot K_b \cdot T_{sm} \cdot 100}{m} = \frac{762 \cdot 0.929 \cdot 8 \cdot 100}{3000} = 188.9$$

Yigiruvchining bandlilik vaqtı

Jadval № 10

Ishchi usullari va ishlar	Vaqt normasi,s	Smenada 100 urchuqlarda hodisalar soni	100 urchuqda smenada umumiy vaqt,s
Ishlangan toslarni almashtirish	13	9.54 7.56	124 98.3
Pilta uzilishlarini bartaraf etish	2	207.6 164.6	415.2 329.2
Ip uzilishlarni bartaraf etish	20	207.6 164.6	4152 3292
Ishlangan	20	47.5	950

bobinalarni olish			
O'rash xonasini tozalash	150	1	150
Yigiruv kameralarini tozalash va mashinani ishga tushirish	450	1	450
Tortish maydonini tozalash	100	2	200
Jami	$T_{z,r} = 2772 = 46.2 \text{ min}$		

Yigiruvchinig xizmat ko`rsatadigan kameralar soni hisobi

$$n_{max} = \frac{T_{sm} \cdot 100}{T_{z,r}} \cdot K_{z,r} \cdot K_d = \frac{480 \cdot 100}{46.2} \cdot 0.75 \cdot 0.97 = 754$$

O`timlarni hisobga olmaganda 1 ta kameraga yigiruvchining bandlilik  
vaqt

$$R_{z,r} = \frac{T_{zr} \cdot 100}{T_{sm} \cdot K_b \cdot 100} = \frac{46.2 \cdot 100}{480 \cdot 0.929 \cdot 100} = 0.104$$

Yigiruvchining xizmat ko`rsatilgan kameralarni aylanishi uchun ketgan  
vaqt

$$t_{obx} = \frac{L_m}{v_r} \cdot \frac{1}{1 - \frac{R_{z,r} \cdot H_0}{1000}} = \frac{65}{0.7} \cdot \frac{1}{1 - \frac{0.104 \cdot 288}{1000}} = 132.65 \text{ s} = 2.21 \text{ min}$$

O`ralmay qolgan kameralar protsenti

$$R_N = \frac{(ch_{ol} + ch_{op}) \cdot t_{obx}}{1200} \cdot K_{obx} + R_0 = \frac{(80+5) \cdot 2.21}{1200} \cdot 1.7 + 0.3 = 2.16\%$$

$R_0 - 0.3 \%$  ga teng deb olamiz.

O`ralish koeffitsienti

$$K_N = 1 - \frac{R_N}{100} = 1 - \frac{2.16}{100} = 0.988$$

$$FVK = K_b \cdot K_N = 0.939 \cdot 0.988 = 0.94$$

Pnevmomexanik yigirish mashinasining unumdorlik normasi.

Tanda:  $UN = FVK \cdot A_n = 0.908 \cdot 320 = 290 \text{ kg/soat}$

Arqoq:  $UN = FVK \cdot A_n = 0.908 \cdot 762 = \frac{691.9 \text{ kg}}{\text{soat}}$

### O`timlar bo`yicha F.V.K.

Jadval № 11

T/r	Mashina-larning nomi	Rusumi	FVK ma`lumot-noma asosida	FVK loyihada
1	2	3	4	5
1.	Tarash	<i>DK-903</i>	0.92	0.92
2.	Pilta I o`tim	<i>HS-1000</i>	0.74	0.90
3.	Pilta II o`tim	<i>RSBD 45</i>	0.81	0.90
4.	Pnevmodan xanik yigirish	<i>SE-11-288</i>	0.95	0.95

## O`timlar bo`yicha M.I.K.

Jadval № 12

T/r	Mashina-larning nomi	Rusumi	MIK ma`lumot-noma asosida	MIK loyihada
1	2	3	4	5
1.	Tarash	<i>DK-903</i>	0.94	0.94
2.	Pilta I o`tim	<i>HS-1000</i>	0.975	0.975
3.	Pilta II o`tim	<i>RSBD 45</i>	0.81	0.90
4.	Pnevmomexanik yigirish	<i>SE-11-288</i>	0.95	0.95

## O`timlar bo`yicha mashinaning unumdorlik normasi va hisobiy ish unumdorligi.

Jadval № 13

T/r	Mashinalarning nomi	Rusumi	FVK loyihada	An, kg/soat	UN, kg/soat	MIK Loyihad a	Ah, kg/soat
1	2	3	4	5	6	7	8
1.	Tarash	<i>DK-903</i>	0.92	80	73.6	0.94	69.2
2.	Pilta I o`tim	<i>HS-1000</i>	0.90	251.9	227	0.975	221
3.	Pilta II o`tim	<i>RSBD 45</i>	0.90	265.3	239	0.975	233
4.	Pnevmomexanik yigirish Tanda: Arqoq	<i>SE-11-288</i>	0.95	0.32	0.3	0.94	0.28
				0.76	0.72		

## I-14.O`timlar bo`yicha aralashmadagi chiqindi miqdori va ip chiqish miqdorini hisoblash

Jadval № 14

T/r	Chiqindi va qaytimlar	TTA	Tarash	PILTA I o'tim	Pilta II o'tim	Pnevmonexani k yigirish	Jami
I.	Qaytimlar						
1.	Pilta uzug`i		0.3	0.3	0.3	0.3	1.2
2.	Michka					0.05	0.05
	Jami		0.3	0.3	0.3	0.35	1.25
II.	Chiqindilar						
1.	Shlyapka tarandisi		2.16				2.16
2.	Bosh ajratuvchi baraban tarandisi		0.1				0.1
3.	Tarash yong`oqchasi va momiq		2.86				2.86
4.	Tayyor bo'limidagi supurindi	0.27					0.27
5.	Chigal ip					0.1	0.1
6.	Qabul barabanidagiyong`oqcha va momiq		1.82				1.82
7.	Bosh va ajratuvchi baraban momig`i		0.4				0.4
8.	Toza supurindi		0.066	0.022	0.044	0.088	0.22
9.	Toy cheti	0.05					0.05
10.							
	Jami	0.32	7.406	0.022	0.044		7.98
III.	Qolgan chiqindilar						
1.	Yer to`ladagi chiqindilar	0.168	0.147	0.105			0.42
IV.	Ko`rinmas chiqindi	0.924	0.8085	0.5775			2.31
	Jami	1.412	8.6615	1.0045	0.344	0.538	11.96
1.	Xom ashyo miqdori	98.588	89.92	89.92	88.578	88.04	100
2.	To`ldirish koefitsienti	1.119	1.021	1.009	1.006	1	

1. Pilta uzug`i. tarash,piltalash,pilta qo`shish,qayta tarash mashinalari ko`p yillik tajribalariga asoslanib tanlab olamiz: 0.15-0.25%

2. Ajralgan michka miqdori x quyidagi formula bilan topiladi:

$$x = \frac{k \cdot T_0 \cdot C \cdot 100}{2 \cdot 60 \cdot 100} + a = \frac{k \cdot T_0 \cdot C}{1200} + a = \frac{1.2 \cdot 1.9 \cdot 30}{1200} + 0.2 = 0.05\% \quad [5]$$

Bu yerda:  $k$  – notekislikni hisoblash koeffitsienti,  $k = 1.4 \div 1.7$   
 $T_0$  – mashinani aylanib chiqish uchun ketgan vaqt,min  
 $C$  – yigirish mashinalarida uzilish miqdori  
 ( yo`g`on ip uchun:  $C = 30 \div 40$ ,  
 ingichka ip uchun:  $C = 50 \div 80$ ,  
 o`rta yo`g`onlikdagi ip uchun:  $C = 40 \div 50$  )  
 $a$  – mashinani zapravka qilish vaqtida ip uzilishidan yo`qotish,  
 $a = 0.2 \div 0.35$

### O`timlar bo`yicha xom ashyo miqdorini aniqlash

1. TTA bo`limi mashinalari  $100 - U_1 = 100 - 1.412 = 98.588 \%$
2. Tarash mashinası  $98.588 - U_2 = 98.588 - 8.6615 = 89.92 \%$
3. Pilta I- o`tim mashinası  $89.92 - U_3 = 89.92 - 1.0045 = 88.92 \%$
4. Pilta II- o`tim mashinası  $88.92 - U_4 = 88.92 - 0.344 = 88.578 \%$
5. Pnevromexanik yigirish mashinası  $88.578 - U_5 = 88.578 - 0.538 = 88.04\%$
- 6.

### I-15. O`timlar bo`yicha to`ldirish koeffitsientini hisoblash.

1.  $TK_{TTA} = \frac{M_{TTA}}{M_{ip}} = \frac{99.588}{88.04} = 1.19 \%$
2.  $TK_{tar} = \frac{M_{tar}}{M_{ip}} = \frac{89.92}{88.04} = 1.021 \%$
3.  $TK_{p.I} = \frac{M_{p.I}}{M_{ip}} = \frac{88.92}{88.04} = 1.009 \%$
4.  $TK_{p.II} = \frac{M_{p.II}}{M_{ip}} = \frac{88.578}{88.04} = 1.006 \%$
5.  $TK_y = \frac{M_y}{M_{ip}} = \frac{88.04}{88.04} = 1 \%$
- 6.

### I-16.O`timlar bo`yicha soatlik topshiriqni hisoblash.

- $$G_T = 9.572 \quad G_A = 11.422$$
1.  $G = G_T - G_A = 9.572 - 11.422 = -1.85$
  2.  $W = G_T + G_A = 9.572 + 11.422 = 20.994$
  3.  $Q_T = \frac{G_T \cdot 100}{W} = \frac{9.572 \cdot 100}{20.994} = 45.594$
  4.  $Q_A = \frac{G_A \cdot 100}{W} = \frac{11.422 \cdot 100}{20.994} = 54.406$
  5.  $Q = Q_T + Q_A = 45.594 + 54.406 = 100$
  6.  $m_T = \frac{Q \cdot Q_T}{A_{his(T)} \left( \frac{Q_T}{A_{h(T)}} + \frac{Q_A}{A_{h(A)}} \right)} = \frac{10000 \cdot 45.594}{0.28 \left( \frac{45.594}{0.28} + \frac{54.406}{0.28} \right)} = 4559.491$
  7.  $m_A = \frac{Q \cdot Q_A}{A_{his(A)} \left( \frac{Q_A}{A_{h(A)}} + \frac{Q_T}{A_{h(T)}} \right)} = \frac{10000 \cdot 54.406}{0.68 \left( \frac{45.594}{0.68} + \frac{54.406}{0.68} \right)} = 5442.777111$

8.  $Q = m_T + m_A = 4559.491 + 5442.777111 = 10000$  yigirish mashinasi

Tanda  $T_T = 42$  teks uchun:

$$St_{p,q} = A_{his} \cdot Q = 4559.5 \cdot 0.28 = 1276.66 \text{ kg/soat}$$

$$1. St_{tar} = St_y \cdot TK_{tar} = 1276.66 \cdot 1.021 = 1305.5 \text{ kg/soat}$$

$$2. St_{p.I} = St_y \cdot TK_{p.I} = 1276.66 \cdot 1.009 = 1288.15 \text{ kg/soat}$$

$$3. St_{p.II} = St_y \cdot TK_{p.II} = 1276.66 \cdot 1.006 = 1284.32 \text{ kg/soat}$$

$$4. St_y = St_y \cdot TK_y = 1276.66 \cdot 1 = 1276.66 \text{ kg/soat}$$

Arqoq  $T_A = 72$  teks uchun:

$$St_{p,q} = A_{his} \cdot Q = 5442.8 \cdot 0.68 = 3701 \text{ kg/soat}$$

$$1. St_{tar} = St_y \cdot TK_{tar} = 5442.8 \cdot 0.68 = 3701 \text{ kg/soat}$$

$$2. St_{p.I} = St_y \cdot TK_{p.I} = 3701 \cdot 1.021 = 3778.7 \text{ kg/soat}$$

$$3. St_{p.II} = St_y \cdot TK_{p.II} = 3701 \cdot 1.009 = 3734.31 \text{ kg/soat}$$

$$4. St_y = St_y \cdot TK_y = 3701 \cdot 1 = 3701 \text{ kg/soat}$$

### I-17. O`timlar bo`yicha mashinalar sonini hisoblash.

Tanda  $T_T = 42$  teks uchun:

$$1. m_{tar} = \frac{St_{tar}}{A_{his}} = \frac{1303.5}{69.2} = 18.9 \approx 19$$

$$2. m_{p.I} = \frac{St_p}{A_{his} \cdot a} = \frac{1288.15}{221 \cdot 1} = 5.8 \approx 6$$

$$3. m_{p.II} = \frac{St_{p.II}}{A_{his}} = \frac{1284.32}{233.1} = 5.5 \approx 6$$

$$4. m_y = \frac{St_y}{A_{his} \cdot m_k} = \frac{1276.66}{0.28 \cdot 288} = 15.8 \approx 16$$

Arqoq  $T_A = 72$  teks uchun:

$$1. m_{tar} = \frac{St_{tar}}{A_{his}} = \frac{3778.7}{69.2} = 54.6 \approx 55$$

$$2. m_{p.I} = \frac{St_{p.I}}{A_{his}} = \frac{3734.31}{221 \cdot 1} = 16.9 \approx 17$$

$$3. m_{p.II} = \frac{St_{p.II}}{A_{his}} = \frac{3723.21}{233 \cdot 1} = 15.9 \approx 16$$

$$4. m_y = \frac{St_y}{A_{his} \cdot m_k} = \frac{3701}{0.68 \cdot 288} = 18.9 \approx 19$$

### Apparatdagagi mashinalar sonini hisoblash.

Jadval № 15

Mashinalar nomi	Mashinalar rusumi	Mashinalar soni	Apparatlar	Apparatdagagi mashinalar soni
1	2	3	4	5
Tarash	DK-903	74	2	37
Pilta I o`tim	HS-1000	23	2	11/12
Pilta II o`tim	RSB D 45	22	2	11
Pnevmomexanik yigirish	SE11-288	35	2	17/18

## I-18.Yigirish rejasini qayta hisoblash.

Tanda uchun:

### 1. Tarash mashinasi DK-903

- a)  $A_{his} = \frac{St_{tar}}{m} \cdot a = \frac{1303.5}{19} = 68.6 \text{ kg/soat}$
- b)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{68.6}{0.94} = 72.98 \text{ kg/soat}$
- c)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{72.98}{0.92} = 79.3 \text{ kg/soat}$
- d)  $n_{a.b} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{a.b} \cdot T_p} = \frac{79.3 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.704 \cdot 7} = 85.4 \text{ ayl/min}$
- e)  $v_{a.b} = \pi \cdot d_{a.b} n_{a.b} = 3.14 \cdot 0.704 \cdot 85.4 = 188.78 \text{ m/min}$

### 2. Pilta mashinasi I o`tim HS-1000

- a)  $A_{his} = \frac{St_p}{m \cdot a} = \frac{1288.15}{6 \cdot 1} = 214.7 \text{ kg/soat}$
- b)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{214.7}{0.97} = 221 \text{ kg/soat}$
- c)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{221}{0.90} = 245.9 \text{ kg/soat}$
- d)  $n_{o.s} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{o.s} \cdot T_p} = \frac{245.9 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.04 \cdot 7} = 4661 \text{ ayl/min}$
- e)  $v_{o.s} = \pi \cdot d_{o.s} n_{o.s} = 3.14 \cdot 0.04 \cdot 4661 = 585.5 \text{ m/min}$

### 3. Pilta mashinasi II o`tim RSB D-45

- a)  $A_{his} = \frac{St_p}{m} = \frac{1284.32}{6 \cdot 1} = 214.05 \text{ kg/soat}$
- b)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{214.05}{0.97} = 220.67 \text{ kg/soat}$
- c)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{220.67}{0.90} = 245.2 \text{ kg/soat}$
- d)  $n_{o.s} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{o.s} \cdot T_p} = \frac{245.2 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.04 \cdot 7} = 4648.03 \text{ ayl/min}$
- e)  $v_{o.s} = \pi \cdot d_{o.s} n_{o.s} = 3.14 \cdot 0.038 \cdot 4648.03 = 583.8 \text{ m/min}$

### a) Pnevromexanik yigirish mashinasi SE-11-288

- b)  $A_{his} = \frac{St_y}{m \cdot a} = \frac{1276.66}{288 \cdot 16} = 0.277 \text{ kg/soat}$
- c)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{0.277}{0.94} = 0.297 \text{ kg/soat}$
- d)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{0.297}{0.95} = 0.312 \text{ kg/soat}$
- e)  $n_{os} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{o.s} \cdot T_{ip}} = \frac{0.312 \cdot 1000 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.04 \cdot 42} = 985.7 \text{ ayl/min}$
- f)  $v_{o.s} = n_{o.s} \pi \cdot d_{o.s} = 985.7 \cdot 3.14 \cdot 0.04 = 123.8 \text{ m/min}$

Arqoq uchun:

### 1. Tarash mashinasi DK-903

- a)  $A_{his} = \frac{St_{tar}}{m} = \frac{3778.7}{55} = 68.7 \text{ kg/soat}$
- b)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{68.7}{0.94} = 73.09 \text{ kg/soat}$
- c)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{73.09}{0.90} = 81.21 \text{ kg/soat}$
- d)  $n_{a.b} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{a.b} \cdot T_p} = \frac{31.21 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.704 \cdot 7} = 87.48 \text{ ayl/min}$
- e)  $v_{a.b} = \pi \cdot d_{a.b} n_{a.b} = 3.14 \cdot 0.704 \cdot 87.48 = 193.4 \text{ m/min}$

## 2. Pilta mashinasi I o`tim HS-1000

- a)  $A_{his} = \frac{St_p}{m \cdot a} = \frac{3734.31}{17 \cdot 1} = 219.7 \text{ kg/soat}$
- b)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{219.7}{0.97} = 226.5 \text{ kg/soat}$
- c)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{226.5}{0.90} = 251.6 \text{ kg/soat}$
- d)  $n_{o.s} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{o.s} \cdot T_p} = \frac{251.6 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.04 \cdot 7} = 4769.9 \text{ ayl/min}$
- e)  $v_{o.s} = \pi \cdot d_{o.s} n_{o.s} = 3.14 \cdot 0.04 \cdot 4769.9 = 599.1 \text{ m/min}$

## 3. Pilta mashinasi II o`tim RSB D-45

- a)  $A_{his} = \frac{St_p}{m \cdot a} = \frac{3723.21}{16 \cdot 1} = 232.7 \text{ kg/soat}$
- b)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{232.7}{0.97} = 239.9 \text{ kg/soat}$
- c)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{239.9}{0.90} = 266.55 \text{ kg/soat}$
- d)  $n_{o.s} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{o.s} \cdot T_p} = \frac{266.55 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.004 \cdot 7} = 5052.9 \text{ ayl/min}$
- e)  $v_{o.s} = \pi \cdot d_{o.s} n_{o.s} = 3.14 \cdot 0.04 \cdot 5052.9 = 634.6 \text{ m/min}$

## 4. Pnevmomexanik yigirish mashinasi SE-11-288

- a)  $A_{his} = \frac{St_y}{m \cdot a} = \frac{3701}{19 \cdot 288} = 0.676 \text{ kg/soat}$
- b)  $UN = \frac{A_{his}}{MIK} = \frac{0.676}{0.94} = 0.72 \text{ kg/soat}$
- c)  $A_n = \frac{UN}{FVK} = \frac{0.72}{0.95} = 0.758 \text{ kg/soat}$
- d)  $n_{kam} = \frac{A_n \cdot K \cdot 1000^2}{60 \cdot T_{ip}} = \frac{0.0257 \cdot 724.5 \cdot 1000}{60 \cdot 0.0154} = 20151 \text{ ayl/min}$
- e)  $n_{os} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{60\pi \cdot d_{o.s} \cdot T_{ip}} = \frac{0.758 \cdot 1000 \cdot 1000}{60 \cdot 3.14 \cdot 0.04 \cdot 72} = 1400 \text{ ayl/min}$
- f)  $v_{o.s} = \pi \cdot d_{o.s} n_{o.s} = 3.14 \cdot 0.04 \cdot 1400 = 175.8 \text{ m/min}$

## I-19.Chiqindilarni ishlash uchun mashinalar tanlash va hisoblash.

Yigirish fabrikalaridan 10-30% har xil tolali chiqindilar ajralib chiqadi. Tolaning narxi toqimachilik sanoatida aylanib turuvchi fondlarni 50% dan 70% gachasini tashkil qiladi. Ipning tannarxining 80-90%ni tola qiymati tashkil qiladi. Shuning uchun ham tolani ehtiyyotlik bilan sarflashning ahamiyati katta.

Yigirish fabrikalaridan ajralib chiqqan chiqindilar qimmatbaho xom ashyo hisoblanadi: ularning eng yaxshisibu uzuq qiymatlar bo`lib, ularni qayta tozalamasdan har qaysini o`z sortirovkalarida ishlatiladi.

Chiqindilarni qabul qilishda ularni ko`zdan kechirish kerak, qaysi standartga to`g`ri kelishi aniqlanib, keyin hisobdan o`tkaziladi. Chiqindilarni tozalashda bir nechta xil maxsus mashinalar qo`llaniladi.

Jadval № 17

Chiqindilar	GOST da ko`rsatilgan nomerlar
Podvalladan, filtrlardan chiqqan mom iqlar	1,1a;
Tozalangan oreshka va momiqlar	2,3,4,4a;
Tarash mashinasidan olingan oreshka va momiqlar	7,8,8a;
Momiq tarandilar	9;
Qayta tarash mashinalaridan chiqqan tarandilar	14,14a,15,15a,16,16a;
Tozalangan taxtachalarda yig`ilgan momiqlar	17;
Yigirish mashinalarining silindr va valiklarga o`ralgan halqasimon halqachalar	22,22a,23,23a,24,24a,25,25a;
Toza supurundilar	33,33a;
Sal ifloslangan supurundilar	34,34a;
Iflos, moyli supurundilar	35,35a;

Chiqindilarning har biri uchun maxsus GOST-5159-78 da ko`rsatilganidek o`z nomerlari bor.

Chiqindilar yig`ish, ularni tashish juda iflos ish, chunki chiqindilar tarkibida chang, mayda iflosliklar ancha ko`p.

Hozirgi zamon yigirish fabrikalarida chiqindilarni to`plash, tashish va tozalash mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlitashtirilgan. Shuning uchun ham yigirish fabrikalarini loyihalashda, albatta chiqindilarni yig`ish va tashish uchun pnevmatik usulini qabul qilish kerak. Bundan tashqari, chiqindilarni bir mashinadan ikkinchi mashinaga o`tkazish va bino ichini tozalash mexanizatsiyalashtirilishi kerak. Shuning uchun ham fabrikalarda bu ishlarni bajaruvchi mashinalar o`rnatilgan bo`lishi kerak. Bu mashinalarni ornatish uchun kerakli joyni hisoblashda taxminiy formuladan foydalanish mumkin:

$$F = K \left( 200 + \frac{n}{250} \right) = 1.8 \left( 200 + \frac{10080}{250} \right) = 432.6, \quad [5,6]$$

Bunda :  $n$  – yigirshdagi umumiylar soni;  $K$  – ishlab chiqarishdagi ipning yo`g`onligi; yo`g`on ip ishlab chiqarishda  $K = 1.8$  ingichka ip ishlab chiqarishda  $K = 1.2$ .

Ajralib chiqariladigan chiqindilarni miqdoriga qarab qabul qilingan va hisoblab chiqarilgan mashinalar, chiqindilarni miqdoriga qarab qabul qilingan va hisoblab chiqarilgan mashinalar, chiqindilar sexida bir nechta smenalarda ishlashi mumkin. Agar loyihalanadigan fabrikada halqali yigirish mashinalari bo`lsa, ajralgan chiqindilarni ishlash uchun quyidagi mashinalarni qabul qilish mumkin.

Chiqindi tozalovchi UOA-2 agregati	1 dona
Seksiyali uzuvchi mashina SSH-850(pilik uzuqlarini tutish uchun)	1 dona
Qisqartirilgan uzlusiz aralashtiruvchi va ta`minlovchi mashina SN-3U	6-12 dona
Chiqindilarni presslovchi mashina ARO-1	2 dona
Qoplovchi mashina MNSH-48MI	1 dona

UA-2 markali chiqindi tozalovchi mashina. Bu mashinada oreshka, tarandilar va eng iflos momiqlar tozalandi. Bundan tashqari, bu agregatda past sortli paxtani tozalash ham mumkin.

### **UA-2 aggregatining texnik tavsifi**

## Gabarit o`lchamlari,mm

Ish kengligi.....	1060
Umumiy kengligi.....	1740
Uzunligi.....	9525
Balandligi.....	3200
Elektromotorning quvvati,kVt.....	4.22
Mashinaning ish unumi,kg/soat.....	150-500
Ajratilgan iflosliklarning umumiy miqdori,% da	
Tarash maashinasidan chiqqan oreshkalarni tozalaganda.....	35.4
Chiqindilardan ajralgan iflosliklar,% da	
Tarash mashinasidan chiqqan chiqindilarni tozalaganda.....	79
Uzluksiz aralashtiruvchi-ta`minlovchi mashina –SN-3U. chiqindilarni sexlardan qabul qilish,yig`ish,to`plash va zarur bo`lsa,chiqindilarni boshqa mashinalarga uzatish uchun qo`llaniladi.	

Jadval № 18

Chiqindilar	Standart nomeri	Ish unumi,kg/soat	Panjaraning tezligi,m/min		Ikkita ignali panjara orasidagi razvodaka,mm
			Ignali panjara	Ta`minlovchi panjara	
Oreshka	2	1100-1300	27	4.5	5
Tarandi	10	500-800	39	3.5	10
Pilta uzug`i	-	600-850	22	3.5	5

## SN-3U mashinasining texnik tavsifi

Ish unumi.kg/soat.....	800
Ish kengligi.mm.....	1520
Mashinani ta`minlash usuli.....	avtomatik
Tekislovchi barabanning diametri,mm.....	406
Diametrler,mm:	
ignalni panjarani ajratuvchi baraban.....	375
kondensorni ajratuvchi baraban.....	375
kondensatorning to`rli baraban.....	540
Gabarit o`lchamlari,mm;	
uzunligi.....	4450
kengligi .....	2100 [5,6]

balandligi.....	3140
Mashinaning massasi,kg.....	3160
Aylanish tezligi, $\text{min}^{-1}$	
kondensor to`rli barabani.....	92
ignalni panjaraning ajratuvchi baraban.....	294
MNSH-48MI markali qoplash mashinasi. Titilgan tolali materiallarni,paxtani va chiqindilarni qoplash uchun ishlataladi. Mashinaning asosi uchta g`ildirakka o`rnatilgan,bular yordamida zaur bo`lganda mashinani boshqa joyga surish mumkin. Bu mashina maxsus tepalikka o`rnatilgan,ichiga shnek joylashtirilgan barabandan iborat bo`lib,baraban ichidagi shnek aylanib,tolali materiaillarni surib qoplarga joylashtiradi.	

**MNSH-48MI markali mashinaning texnik tavsifi**

Shnekning aylanish tezligi, $\text{min}^{-1}$ .....	17
---	----

Elektr motori:

turi.....	AO-51-6
quvvat,kVT.....	2.8
aylanish tezligi, $\text{min}^{-1}$ .....	950

Mashinaning massasi,kg.....	670
-----------------------------	-----

Chiqindilar uchun ishlataladigan press ARO-1. Tolali materiallarni va chiqindilarni ishlatish uchun qulay shaklga keltirib presslash uchun mo`ljallangan.

**ARO-1 mashinasining texnik tavsifi.**

Toy hosil qilish,min.....	10
---------------------------	----

Toyning o`lchamlari,mm.....	1050x650x880
-----------------------------	--------------

Toyning massasi.....	120-140
----------------------	---------

Presslash sharoiti,N.....	$40 \cdot 10^4$
---------------------------	-----------------

Elektromotor quvvati,kVt.....	20.3
-------------------------------	------

Gabarit o`lchamlari,mm:

uzunligi.....	5850
---------------	------

kengligi.....	2900
---------------	------

balandligi.....	5700
-----------------	------

Pressning massasi,kg.....	6200
---------------------------	------

Bajarish usuli.....	knopkalar bilan
---------------------	-----------------

**I-20.Paxta tolasini saqlaydigan omborning hajmini hisoblash.**

Yigirish fabrikalarining doimiy va bir tekis ishlashini ta`minlash uchun hamda olinadigan iplarning sifatini yaxshi va doimiy saqlab turish uchun sortirovkalar tarkibi o`zgarmas bo`lishi kerak. Sortirovka tarkibini uzoq vaqt bir xil saqlash uchun fabrikalarda paxta zapasi yetarlicha bo`lishi kerak. Fabrikalar ishini uzluksiz tashkil etilishi uchun paxta tolasini saqlash uchun oylik paxta zahirasi sig`adigan omborxonalar zarur,loyihalashda albatta [5,6]

paxta omborining maydoni hisoblab chiqiladi va joylashtiriladi. Paxtani saqlash uchun har bir sortirovka tarkibiga 6-8 marka kiritilishi kerak, har bir marka 200 toy paxtadan iborat bo`ladi. Bu bitta to`rt o`qli vagonga sig`adigan toy paxtalar soni, har bir toy paxtaning massasi 200-220kg bo`ladi.

Ombor maydoni quyidagicha hisoblanadi.

- 1) Loyihada bajarilgan xom ashyo balansidan fabrikaning bir yillik ishlataladigan paxta miqdori aniqlanadi, bu miqdorni  $Q$  deb olinsa, (tonnada), fabrikani uch oy davomida ishlataladigan paxta miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$g = \frac{Q \cdot 1000}{4}, kg$$

- 2) 3 oy davomida fabrikada ishlataladigan toy paxta miqdori aniqlanadi-m;

$$m = \frac{g}{g_0}, \text{ bunda: } g - \text{bitta toy paxtaning massasi, kg; } g_0 = 200 \text{ deb}$$

olinadi.

- 3) Markalar sonini aniqlaymiz. Toy paxtalarni omborlarda markalari bilan alohida saqlanadi.

$$M = \frac{m}{n}; n - \text{bitta markadagi toy paxtalar soni, uning qiymati } n = 200$$

- 4) Omborning maydonini hisoblaymiz. Toy paxtalarni omborlardan 6-7 qator qilib taxlanadi. Bitta markada 200 toy paxta bo`lsa, uni  $200:6=33.2$ . demak, har bir qatorga 32 toy paxta terilsa ( $32 \times 6 = 192$ ), olti qatorga 192 toy joylashadi, qolgan 8 toy paxta 7-qatorga taxlandi.

Markadagi toy paxtalar har xil qilib taxlanishi mumkin. Shulardan bittasini ko`rib chiqamiz. Joylashtirish sxemasi 3-rasmida berilgan ( $a=500$  mm;  $b=100$  mm). toy paxtaning o`lchamlari:  $970\text{mm} \times 755\text{mm} \times 595\text{mm}$ ; bitta markani egallagan joyi: markaning uzunligi  $l=755 \times 8 + 7 \times 100 = 6740$ ; markaning kengligi

$$l_1 = 970 \cdot 4 + 3 \cdot 50 = 4030.$$

- 5) Bir nechta markalarni bir joyga to`plab saqlashga shtabel deyiladi.

6) Odatda bitta shtabelga 6 marka kiradi. Shtabel sonini aniqlash uchun 3 oylik toy paxtani sonini bitta shtabel tarkibidagi toy paxtaning soniga bo`lish kerak,ya`ni,  $sh = \frac{m}{n \cdot 6}$ , bunda: m-3 oyda ishlatiladigan toy paxtalar soni,n-bitta marka tarkibidagi toy paxtaning soni.

7) Shtabel egallaydigan joyni hisoblaymiz. Bitta shtabel tarkibiga 6 marka kiraid,markalarni 2-rasmdagicha joylashtirish mumkin ( $B=300$  mm, $A=100$ mm).

Shtabelning uzunligi  $l_{sh} = 3 \cdot 6740 + 2 \cdot 100 = 20420$  mm;  
shtabelning

$$\text{kengligi } l_{sh} = 2 \cdot 4030 + 300 = 8360 \text{ mm.}$$

Albatta shtabel tarkibidagi markalarni boshqacha ham joylashtirish mumkin.

8) Omborning o`lcham miqdorini aniqlashda shtabellarni har xil joylashtirish mumkin. Shtabellarni qanday qilib joylashtirish eng avvalo ularning soniga bog`liq. Shtabellarning soni esa umuman olganda fabrikalarning katta va kichikligigga bog`liq. Fabriklar qancha katta bo`lsa,shtabellar soni shuncha ko`p bo`ladi. Ikkinchidan,shtabellar soni ishlab chiqariladigan iplarning yo`g`onligiga bog`liq. Ishlab chiqarilayotgan ipning yo`g`onligi qancha katta bo`lsa,shtabellar soni shuncha ko`p bo`ladi.

Shtabellarni ikki qator qilib,3-rasmda ko`rsatilganidek ko`ndalangiga joylashtirish ham mumkin.

$$\text{Omborning kengligi (yo`laksiz) } O_k = 2 \cdot 20200 + 2 \cdot 1800 = 48 \text{ m;}$$

$$\text{Omborning uzunligi } O_u = 2 \cdot 1300 + 5 \cdot 8360 - 4 \cdot 2000 = 52.400 \text{ m}$$

bunda 5- shtabellar soni

Xom ashyo ombori maydonini hisoblashda bir sutkada yetadigan paxta markalari sortlari seleksiyalari bilan ajratilgan alohida maxsus joyda saqlanadi. Bundan maqsad fabrikaning bir sutkalik ishini stabillikni ta`minlash va paxta namligini bir me`yorda turishdan iborat.

1. Bir sutkada ishlanadigan paxta miqdorini aniqlash. [5,6]

$$Q = C_{TTA} \cdot t = 800 \cdot 21 = 16800 \text{ kg}$$

Bunda:  $C_{TTA}$  –titish tozalash agregatining 1 soatdagi ish unumdarligi,kg/soat  
 $t = 3$  smena davomidagi ishchi soat vaqtisi  $t = 3 \cdot 7 = 21 \text{ soat}$

2. Umumiylar agregatlarining ish unumdarligi

$$Q_{um} = Q \cdot A_g = 16800 \cdot 4 = 67200 \text{ kg}$$

Bunda:  $Q$  – bitta agregatning bir sutkadagi ishlanadigan paxta miqdori,kg  
 $A_g$  –agregatlar soni,dona

3. Paxta toyi sonini aniqlash

$$P_T = \frac{Q_{um}}{G_{toy}} = \frac{67200}{220} = 305 \text{ ta}$$

Bunda:  $Q_{um}$  –umumiylar agregatning ish unumdarligi,kg

$G_{toy}$  –bitta toyning og`irligi,kg

4. Bitta toyning egallagan maydonini aniqlash.

$$F_{toy} = L_{toy} \cdot B_{toy} = 0.935 \cdot 0.735 = 0.6872 \text{ m}^2$$

Bunda:  $L_{toy}$  –toyning uzunligi,m

$B_{toy}$  –toyning eni,m

5. 1 sutkada ishlanadigan toy paxtanining egallagan maydonini aniqlash.

$$F_{sut} = F_{toy} \cdot P_T = 0.6872 \cdot 305 = 209.6 \text{ m}^2$$

Bunda:  $F_{toy}$  –bitta toyning egallagan maydoni,  $m^2$

$P_T$  – paxta toyining soni,ta

6. 1 oy davomida ishlanadigan toy paxtalarning egallagan maydonini aniqlash.

$$F_{oy} = \frac{F_{sut} \cdot t_{ish.kuni}}{P_{t.q}} = \frac{209.6 \cdot 25}{4} = 1310 \text{ m}^2$$

Bunda:  $F_{sut}$  –1 sutkada ishlanadigan toy paxtanining egallagan maydoni,  $m^2$

$t_{ish.kuni}$  –1 oydagisi ish kunlari soni,kun

$P_{t.q}$  – toy qatorlar soni

## **To'qimachilik korxonalarida shovqinni kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish chora tadbirlari.**

Turli balandlik va chastotadagi tovushlarning tartibsiz ravishda qo'shilib eshitilishi shovqin deb ataladi. Tovush fizik holat sifatida havo, suv va boshqa tarang muhitdan kelib chiqadigan to'lqinsimon harakarlardan iborat bo'lib, tovush chiqaradigan jismlarning tebranishi natijasida hosil bo'ladi.

Shovqin kasb kasalliklariga olib kelishi mumkin. U boshni aylantirib, miyada og'riq turg'izadi va quloq shang'illab asab tizimiga ham yomon ta'sir qiladi. Ayniqsa, fikrni to'plab, aqliy ish bilan shug'ullanishga imkon bermaydi, ish qobiliyatini 10-60% gacha pasaytirib yuborishi mumkin. Uzoq vaqt mobaynida shovqinning odamga sezilmas darajada ta'sir qilishi asab tiziminig ishdan chiqishiga olib keladi. Ayniqsa, qattiq va juchli tovushlar, shuningdek to'xtovsiz ravishda bir xilda chiqib turadigan tovushlar odamga yomon ta'sir qiladi va tez charchatadi.

Shovqin ta'sirida turli a'zolar va tizimlarning, masalan hazm qilish (oshqazon shirasi sekretsiyasining o'zgarishi), qon aylanishi (qon bosimining ko'tarilishi) tizimlarining normal faoliyati buziladi.

Kelib chiqishiga k'ra shovqin, asosan uch xil bo'ladi: sanoat shovqinni, transport shovqini, maishiy shovqinlar. Shu bilan birga gaz va suyuqliklarning harakati natijasida ham shovqin chiqishi mumkin. U *aedodinamik shovqin* deb ataladi.

Ruhsat etilgan chekli sanitariya talablaridan ortiq bo'lgan ishlab chiqarish shovqinlari, titrashlari va ultra-infratovushlari muntazam ravishda ta'sir etganda odam organizmiga zararli ta'sir qilib, keyinchalik og'ir kasb kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. To'qimachilik sanoati jorxonalaridagi shovqin darajasi yuqori bo'lgan sexlarda ishlovchi ishchilarda "shovqin

kasalligi”, shu bilan birga ayrim ish joylarining surunkali titrashi natijasida “vibratsion kasallik” ham uchrab turadi.

Shovqin –bu tovushdir. Tovush esa havodagi zarrachalarning mexanik tebranishidir. bu tebranishlar to’lqinsimon ravishda tarqalib kishi quloq pardasiga tegadi, natijada tovush eshitiladi. Tovush eshitilishi uchun to’lqin ma’lum kuchga ega bo’lishi kerak. Bu kuch esa tovush to’lqinining paskalda (Pa) o’lchanadigan bosimi bilan belgilanadi.

Quloq tovush bosimining  $2 \times 10^{-5}$  dan  $2 \times 10^2$  Pa.gacha bo’lgan diapazonini qabul qila oladi.pastki chegara, ya’ni ( $P_0=2 \times 10^{-5}$  Pa) kishi qulog’I ilg’ay oladigan minimal tovush bosimi- “eshitish chegarasi”, yuqorigi chegara, ya’ni ( $P_{max}=2 \times 10^2$ ) kishi qulog’i og’riq sezguncha chiday oladigan maksimal tovush bosimi- “og’riq chegarasi” deb ataladi. Og’riq chegarasidan yuqorida qulqlardan qon sizib chiqishi va quloq pardasining yirtilishi hollari bo’lishi mumkin. Ikki kishining o’zaro suhbatি odatda, 0,1 Pa bosimda kechadi.

Chastotalar bo’yicha kishi qulog’I 20 dan 20000 Hz oralig’idagi tovushlarni ayniqlsa 37.5-9600 hz oralig’idagi chastotalar diapazonini yaxshi qabul qila oladi. Bu kichik va o’rta yoshli odamlarga xos. Kishi qariganda esa eng yuqorigi chegara 15000Hz larga tushib qoladi, 20Hzdan kichik va 20000Hz dan katta chastotali tovushlar infra va ultratovushlar deyiladi. Bu chegaralardan tashqaridagi tovushlarni kishi qulog’I eshita olmaydi.

Odamning eshitish qobiliyatini tovush bosimining mutlaq o’zgarishi bo’yicha emas, balki nisbiy o’zgarishi shovqin kuchining boshlang’ich darajasi deb atalib, etalon sifatida qabul qilingan.

Ishlab chiqarishda shovqinni pasaytirishga shovqin manbaining o’zidayoq shovqin sabablarini bartaraf etish va uning tarqalish darajasini kamaytirish yo;li bilan erishish mumkin.. shu bilan birga shovqinning zararli ta’siridan himoyalanish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Shovqinli uskunalar past shovqinli uskunalar bilan almashtililadi;
- Shovqinlli uskunalar sexda eng kam odam ishlaydigan vaqtida ishlatiladi;

- Korxona hududi ko'kalamzorlashtiriladi;
- Shovqinning tarqalishini cheklash choralari ko'rildi;
- Shovqin so'ndirgichlardan foydalaniladi;
- Tovush o'tkazmaydigan g'iloflar yordamida shovqinning atrofga tarqalishi kamaytiriladi;
- Shovqin ta'siridan himoyalaydigan yakka tartibdagi himoya vositalaridan foydalaniladi.

Shovqinni o'lchash va tahlil qilish uchun har xil tuzilishdagi shovqin o'lchagich, analizator, o'ziyorar uskuna, magnitafon hamda ossillograflardan foydalaniladi. O'lchash yo'nalihi bo'yicha shovqinni o'lchash usullarini nazorat va muhandis usullariga ajratiladi.

Nazorat usuli asosan ishlab chiqarish, transport, maishiy shovqinlarning sanitariya talablariga mosligini tekshirish uchun qo'llaniladi. Bu usulda oktavali chastotali polosalari bo'lgan analizator va shovqin o'lchagichlardan foydalaniladi.

Muhandis usuli shovqin manbalarini tekshirish, uning paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish, shovqinni so'ndirish vositalarini ishlab chiqishdan iborat. Bu usulda o'lchash uchun uchdan bir oktavali tor polosali analizatorlar, yorug'lik nurlarini hisoblash va boshqa asboblar ishlatiladi.

Shovqinga qarshi kurashish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- Oqilona akustik rejalashtirish (shovqinli uskunalarni to'g'ri joylashtirish);
- Shovqinni ihotalash;
- Manbaning shovqin chiqarishini kamaytirish;
- Shovqinni yutish;
- Shovqinga qarshi to'siqlarni qo'llash;
- Shovqinni bo'g'uvchi moslamalarni qo'llash;
- Shovqinga qarshi shaxsiy himoya vositalarini qo'llash.

Oqilona akustik rejorashtirish. Korxona obyektlarini rejorashtirish, bosh rejani loyihalashda shovqin chiqaruvchi obyektlarni lokallashtirish, ma'lum joylarga ya'ni boshqa obyektlarga shovqinning zarari tegmaydigan qilib joylashtirish talab qilinadi. Bu birinchi navbatda “shamollar guldastasi”, ya'ni shu aholi mavzesida shamolning asosiy yo'nalishi hisobga olinadi.

Shovqinli sexlar bilan “tinch” xonalar (idoralar, konstruktorlik byurolari, kutubxona, tibbiyat xonasi va h.k) orasidagi masofa shovqinni kerakli miqdorda kamaytira oladigan darajada bo'lishi kerak. Mabodo korxona shahar hududida bo'lsa (to'qimachilik korxonalari akar hollarda shahar hududi ichida joylashgan bo'ladi), shovqinli sexlar aholi yashovchi uylardan uzoqroqda, ya'ni korxona hududining ichkarisida joylashtirilishi lozim. Agar bunday sexlar bir binoning ichida joylashtirilishi lozim bo'lsa, “tinch” xonalar shovqinli xonalardan shovqinni yaxshi ihotalovchi to'siqlar bilan to'silishi yoki boshqa, odam kam bo'ladigan xonalar, sanuzel va koridorlar bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

Ko'p shovqin chiqaradigan sexlar atrofi ko'kalamzorlashtirilgan, bargi qalin daraxtlar va butalar bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Manbaning shovqin chiqarishini kamaytirish eng ilg'or usullarudan biri hisoblanadi. Bu shovqinli mashinaning konstruktsiyasini yoki texnologik jarayonni o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, mashina va uskunalardagi zarbali harakatlarni zerbasisiz harakatlarga almashtirish, agregatlar kichik tezlanishining knimatik sxemalarini yaratish va h.k.

Manbadagi shovqinni pasaytirishda detallarning titrashini kamaytirish juda yaxshi samara beradi. Buning uchun, metalldan yesalgan detallarning ichki ishqalanish koeffitsiyenti katta bo'lgan mateiallar (rezina, bitum, butumlashtirilgan kigiz, karton) bilan qoplanadi. Plassmassadan yasalgan shesternyalarni qo'llash va ular yuzasini rezina bilan qoplash shovqinni sezilarli darajada pasaytiradi. Pnevmatik yigiruv mashinalarida halqali yigiruv mashinalariga nisbatan shovqin 10-20 dB kamdir.

Keyingi yillarda ko'pgina fabrikalarda shovqinni kamaytirish maqsadida T-150 qo'shib o'rash mashinasining ekssentrik mexanizmi ariqchali barabancha bilan almashtirildi. Bunda asosiy shovqin manbai bo'lган ip yo'naltirgich, ekssentrik hamda uning vali kerak bo'lmay qoldi va ular olib tashlandi.

To'qimachilik sanoatida shovqin asosan mexanik va avtomatik to'quv dastgohlaridan chiqadi. Dastgoh mexanizmlarining, ayniqlsa, tepki mexanizmi, harakat uzatuvchi shesterniyalar, batanning va mokining urilish paytlarida shovqin ortib ketadi.

Shovqinni manbada ihotalash, uni pasaytirishning ta'sirchan tadbirlaridan biridir. Hozirgi paytda ihotalashning texnik darajasi shovqinni 20-40dB.ga kamaytirish imkonini beradi. Shovqinni ihotalovchi vositalarga kabina, to'siq va himoya qobiqlarini hamda mashina va mexanizmlarni yerga o'rnatish joylariga rezina qistirmalar, po'kak va po'lat prujinalar orqali o'rnatish misol bo'lishi mumkin. Masalan, qalinligi 40 mm.li namat va rezina namat qistirmalar ishlatilganda to'quv dastgohlaridan ajralib chiqadigan shovqin 1-2 dB, yuqori chastotalarda esa 5-7 dB.ga kamayadi. To'quv dastgohlarining yuzalarini, 0,15 mm qalinlikdagi 709 raqamli lok bilan qoplash shovqinni 4 dB.ga kamaytirishi ma'lum.

Mashina va uning ayrim qismlarini qobiqlar bilan berkitish shovqinni kamaytiradi. Bularni samaradorligini oshirish maqsadida qobiqlar ichi tovush yutuvchi materiallar bilan qoplanadi. Bunda mashina va mexanizmlarning harakatidan qobiqlarning o'zi titrab, shovqin chiqarmasligiga erishish kerak. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, to'quv dastgohidagi mokki qutichasini 0,09-0,1 g/sm zichlikdagi mikrog'ovak plastikat bilan qoplash shovqinni 3-3,5 dB.ga kamaytirish imkonini beradi.

To'qimachilik korxonalarida shovqinni so'ndirish uchun sex binosi elementlariga shovqin yutuvchi panellar ishlatiladi. Ayrim hollarda sexlarning devorlari vatin bilan to'ldirilgan yog'och ramalariga joylashgan g'ovaklashtirilgan po'lat qoplamlar bilan qoplanadi.

Tadqiqotlar shovqin yutuvchi qoplamlarning shovqin yutish koeffitsienti keng diapazonda (4000-6000 Hz)yuqoriligini (0,5-0,65)ko'rsatdi. Ma'lumki, 4000 Hz atrofidagi chastotalarda sanitariya me'yorlaridan ortuvchi shovqinlar eng zararli hisoblanadi.Bulardan tashqari,ayrim korxonalarda sex devorlari va shiftlarini shovqin yutuvchi materiallar bilan pardozlanadi. Bunda sex juda ham baland bo'limga hollarda (4-6 m)yuqori samaraga erishish mumkin. Sex shiftlari baland bo'lgan hollarda bunga qo'shimcha ravishda shovqin manbai bilan ish joylari oraliqlariga g'ovaklashtirilgan shovqin yutuvchi materiallar qoplangan shovqin ekranlari (ular metall,oyna,yog'och,plastmassa va boshqa materiallardan tayyorlanishi mumkin)o'rnatiladi.

Ko'pincha to'qimachilik korxonalarida aerodinamik shovqinlar, ya'ni kuchli havo oqimi hisobiga ajralib chiqadigan shovqinlar uchraydi. Bu hollarda shovqinni kamaytirish maqsadida har xil konstruksiyali shovqin so'ndirgich ishlatiladi. Bular naysimon ari iniga o'xshash g'ovak plastinkali,kamerali va turli shakillarda bo'lishi mumkin. Bularning umumiy xususiyati shundaki ,ichki devorlari tovush yutuvchi materiallar bilan qoplangan bo'ladi.

Ma'lumki, sexlardagi shovqin darajasi faqatgina manbalardan to'g'ridan-to'g'ri kelayotgan tovushlar hisobigagina emas, balki aks sado hisobiga ham ortishi mumkim. Bunday hollarda manba shovqinini kamaytirish imkon bo'lmasa qaytgan tovushlar energiyasini so'ndirish uchun sexning ichki devor va shiftlari tovush yutuvchi qoplamlar bilan qoplanadi hamda shiftlarga kub ,konus va boshqa shakillarda tovush yutuvchi materiallar osib qo'yiladi. Yani xonalarga akustik ishlov beriladi.

Akustik plitalar shiftlarga to'g'ridan to'g'ri yoki ma'lum masofa qoldirib biriktiriladi. Bu plitalar shisha,kapron,mineral tolalardan hamda har xil biriktiruvchi moddalar bilan qorishtirilgan yog'och qipiqlari,polivinilxlorid va shunga o'xshash g'ovak materiallardan yasalib,ularni bo'yab yoki ma'lum shakllarda ishlab chiqariladi.

Ularning tovush yutish xususiyatlari g'ovak materiallar qalinligi, tovush chastotasi va pilta bilan devor orasida havo qatlami bor yoki yo'qligiga

bog'liqdir. Ayni paytda bu qoplama 20-200mm ni tashkil qiladi, bunda asosan o'rta va yuqori chastotalardagi tovushlar yutiladi.

Shovqin manbalari bilan ish joylari orasiga o'rnataladigan ekranlar ham shovqindan saqlanishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ekranlarning akustik afzalligi ularning orqasida tovush to'lqinlari qisman o'ta oladigan zona hosil qilishdan iboratdir. Shovqinning ekrandan o'tish darajasi ekranning o'lchamiga va tovushning to'lqin uzuznligiga bog'liqdir. Ekranning bir xil o'lchamida tovush to'lqin uzunligi qancha katta bo'lsa, ekran oldidatovush o'tadigan zona shuncha kichik bo'ladi. Shuning uchun ekranlar asosan o'rta va yuqori chastotali shovqinlardan to'sish uchun ishlatiladi. Past chastotali ekranlar kam samaralidir. Shovqin darajasi yuqori bo'lgan ayrim sexlardagi ish joylari, masalan, operatorlarning boshqarish pultlari shovqindan himoyalangan kabinalarga joylashtiriladi.

Shovqinni to'sish maqsadida tovush yutadigan hamda tovush o'tkazmaydigan ashyolar va konstruktsiyalardan foydalilanadi. Havoda tarqaladigan aerodinamik shovqin har xil tuzilishdagi so'ndirgichlar yordamida pasaytiriladi. Naychasimon shovqin so'ndirgichlar kvadrat yoki to'rtburchak keimli qilib tayyorланади. Tovush yutadigan qatlamning qalinligi 700 mm. shovqin so'ndirgich to'ri havo sarfiga, ruhsat etilgan tezliklarga qarab tanlanadi.

Shovqinning to'sishni asosiy usuli qo'shni xonadagi shovqin darajasini pasaytiradigan tovush o'tkazmaydigan uskunalar o'tkazishdir. Devor va pardevorlarning tovush o'tkazmaslik xossalari oshirish yoki ularning og'irligini kamaytirish uchun oralig'ida havo tirkishi bo'lgan har xil to'siqlarni qo'llash tavsiya etiladi. Zichlovchi ashyolar sifatida yumshoq rezinalar, toshpaxta chilviri, bitum shimdirligan los, ruberoiddan foydalanish mumkin.

Shovqinni susaytirish uchun tovushni yaxshi yutadigan va bu bilan tovush to'lqinlarini jadallagini pasaytiradigan tovush yutuvchi ashyolardan foydalilanadi. Barcha ashyo va konstruktsiyalar tovush energiyasini yutish prinsipiga ko'ra uch guruhga:

- G'ovakli
- Rezonans
- Donali tovush yutkichlarga bo'linadi.

G'ovakli tovush yutkichlarga yog'och tolasidan, miniral paxtadan, shisha tolasidan tayyorlangan plitalar, smentli fibrolit, ftoroplast, kapron va mimeral tolalardan yasalgan to'shamalar shisha tola kiradi.

Tovush yutadigan ashylarning tovushni yutish koeffitsiyenti ularning xossalari, qalinligi va joylashtirish usuliga bog'liq.

Rezonans tovush yutkichlar har ikki tomoniga mato yopishtirilib, shovqin manbaidan ma'lum masofada joylashtirilgan teshik-teshik ekrandan iborat. Ekran sifatida yog'och qipig'idan va toshpaxtadan ishlangan pilalar, faner foydalaniadi.

Donali tovush yutkichlar hajmiy jismlardan iborat bo'lib, ular xonaga bir-biridan 1500-2000 mm oraliqda osib qo'yiladi va asosan g'ovakdor ashylardan tayyorlanadi. Donali tovush yutkichlarning afzalligi shundaki, ularni shovqin manbaining yonginasigagina o'rnatish mumkin.

### **Shaxsiy himoya vositalari.**

Insonning eshitish a'zolarini himoya qilish vositalari o'z vazifasi va konstruktsiyasiga ko'ra uch turga bo'linadi:

- Quloqqopqoq-quloq suprasini;
- Tiqinlar- tashqi eshitish kanalini;
- Shlemlar- boshning bir qismini va quloq suprasini berkitib turadi.

Bularni qo'llash ayrim oktava chiziqlarida tovush bosimi sathini 35-40 dB gacha kamaytiradi. Ular, ayniqsa, kishi organizmi uchun xavfli bo'lgan yuqori chastotali shovqinlarni pasaytirishda yaxshi samara berdi.

To'qimachili sanoatining shovqinli sexlarida eshitish a'zolarini himoya qilishga zarurat seziladi. Ularni tanlash shovqinning jadalligiga bog'liq. Tovush bosimi sathi 120 dB.gacha bo'lgan jadal shovqinlar ta'sir qilayotgan sharoitda VTSNIIOT-2M naushnigini qo'llash tavsiya etiladi. To'quv, kalavalash va qayta o'rash sexlarisa kichik gabaritli VTSNIIOT-4M

naushnigini qo'llash maqsadga muvofiqdir. VTSNIIOT-2M ishlatalishga qulay va spektrning yuqori chastotali qismida samaralidir, VTSNIIOT-4Mning akustik samaradorligi biroz past.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish sexlarida 90 dB.gacha va 90-120 dB.gacha qo'llanadigan radiolashtirilgan VTSNIIOT-4FM va VTSNIIOT-2FM qulqqopqoqlari keng qo'llanilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari doimo yurib bajariladigan ishlarda maxsus ixcham priyomnikli "orfey-1" radioqulqqopqoqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishchini shovqinni to'g'ridan- to'g'ri ta'siridan himoyalaydigan ekranlar shovqinning yuqori chastotali tarkibiy qismlarini pasaytiradi. Tovush soyasi yuzaga kelishi natijasida ekran ortida shovqin pasayadi.

Agar texnik usullar bilan shovqinni sanitariya gegiyena meyorlariga qadar pasaytirib bo'lmasa, u holda shovqindan yakka tartibda himoyalash vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday vositalarga qulq tiqmalari (vkladishlar), qulqqopqoqlar (naushniklar), shlemlar kiradi.

Qulq tiqmalari juda ingichka toladan tayyorlangan, ba'zan mum va parafin aralashmasi shimdirilgan, uloqqa tiqib qo'yiladigan paxta yoki doka bo'lagidir. Konus shaklidagi qattiq tiqmalari ham mavjud (shovqinni 5-20 dB.gacha pasaytiradi).

To'qimachilik korxonalarida qulqqopqoqlar keng qo'llaniladi. Ular yoysimon prujina hisobiga qulq chig'anog'iga zikh tegib, uni berkitib turadi, yuqori chastotalarda samarali ishlaydi ( shovqinni 20-30 dB.gacha pasaytiradi). Tovush quvvati 120 dB bo'lganda shovqindan himoyalanish uchun shlemlardan foydalaniladi.

### **Changlarning tasnifi, changli havoni tozalash.**

Ishlab chiqarishdagi ko'p ishlarni bajarishda chang hosil bo'ladi.

Ular kelib chiqish manbalariga ko'ra, tabiiy va sun'iy changlarga bo`linadi.

a) Tabiiy changlar - inson ta'sirisiz hosil bo'ladi. Bunday changlar turkumiga shamol va bo'ronlar ta'sirida qum hamda tuproqning erroziyalangan

qatlamlari ko`chishi, o`simlik va hayvon olamida, vulqonlar otilishi boshqa hollarda paydo bo`ladigan changlarni kiritish mumkin.

b) Sun`iy changlar – ishlab chiqarish korxonalari va qurilishlarda insonning bevosita ta`siri natijasida hosil bo`ladi.

Kelib chiqish xususiyati bo`yicha organik, mineral va aralashma changlarga farqlanadi. Changlarning zararli ta`siri uning kimyoviy tarkibiga bog`liq. Changning kattaligi, uch guruhgaga bo`linadi:

-kattaligi 10 mkm.dan katta bo`lgan changlar. Bunday changlar o`z og`irligi ta`sirida yerga qo`nadi;

-kattaligi 10 mkm.dan 0, 25 mkm.gacha bo`lgan changlar. Ular yerga juda sekinlik bilan tushadi va mayda changlar deb yuritiladi.

-kattaligi 0,25 mkm.dan kichiqk bo`lgan changlar, ular yerga qo`nmay havoda uchib yuradi. Changning inson organizmiga ta`siri, eng avvalo, nafas olganda yuzaga keladi. Bunda havo bilan nafas olish, asosan, nafas organlarini zararlanishi: bronxit, pnevmo-konioz yoki umumiyl reaksiya (zaharlanish, allergiya) rivojlanishini vujudga keltirishi va changning o`pka yo`liga kirishi pnevmaniya, sil, o`pka rakining kelib chiqishiga sharoit yaratishi mumkin. Qo`rg`oshin, mis va boshqa metallarning changi inson organizmiga zaharlovchi modda sifatida salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Changning hosil bo`lishi va tarqalishiga qarshi kurashda texnologik jarayonlar avtomatik usullarga o`tkazilgan halda jihozlarning zichligi oshirilib, ma`lum masofadan turib boshqarish tizimlariga o`tish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sanoatda, transport vositalarini ishlatishda va qishloq xo`jaligida bajariladigan ishlarning deyarli hammasida chang hosil bo`lishi va ajralishi kuzatiladi. Umuman changlar, ularning kelib chiqish manbalarini hisobga olgan holda *tabiiy va sun`iy changlarga* bo`lib o`rganiladi. Ma`lumki, changlangan havo muhiti insoniyatni qadim zamonlardan beri ta`qib qilib kelgan. **Tabiiy changlar** sirasiga tabiatda inson ta`sirisiz hosil bo`ladigan

changlar kiritiladi. Bunday changlarga shamol va qattiq bo`ronlar ta`sirida tuproqning erroziyalangan qatlamlarining uchishi, o`simlik va hayvonot olamida paydo bo`ladigan changlar, vulqonlar otilishi, kosmosdan yer atmosferasi ta`siriga tushib qolgan meteoritlar, kosmik jismlarning yonib ketishidan hosil bo`ladigan changlar va boshqa hollarda hosil bo`ladigan changlarni kiritish mumkin.

Tabiiy changlarning atmosfera muhitidagi miqdori tabiiy sharoitga, havoning holatiga, yilning fasllariga va aniqlanayotgan joyning qaysi mintaqada joylashganligiga bog`liq. Masalan, atmosferadagi chang miqdori shimoliy hududlarga nisbatan janubiy hududlarda, o`rmon mintaqalariga qaraganda cho`l mintaqalarida, shuningdek qish oylariga nisbatan yoz oylarida ko`proq bo`lishi ma`lum. Aniqlanishicha, har bir kubometr havo tarkibida katta shaharlar hududlarida 6000 atrofida (ba`zi bir manbalarda avtomobil vositalaridan ajralgan tutunlarni ham kiritib 30000) har xil kattalikdagi chang zarralari bo`lishi aniqlangan. Dalalar va bog`larda bu miqdor o`n marta kamayadi, tog`li hududlarda esa undan ham kamroq chang zarralari bo`ladi.

**Sun`iy changlar:** sanoat korxonalarida va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta`siri natijasida hosil bo`ladi. Masalan, mashinasozlik sanoatida cho`yan ishlab chiqaruvchi domna va marten pechlarida va hamda tosh sexlarida, issiqlik elektrostansiyalarida yoqilgan ko`mirning ma`lum qismi kul va tutun sifatida atmosferaga chiqarib yuboriladi. Qurilish ishlarida yer qazish, portlatish, sement ishlab chiqarish, shuningdek tog`lardan ma`danlarni qazib olish va boshqa juda ko`p ishlarda ko`plab miqdorda

chang ajraladiki, bu changlarni atrof-muhitga chiqarib yuborish tabiatga halokatli ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Sanoatning ba`zi bir tarmoqlarida, masalan, kimyo sanoatida shunday xavfli sanoat changlari ajraladiki, ularni tozalamasdan chiqarib yuborish fojiali holatlarni vujudga keltiradi. Kelib chiqishi bo`yicha organik, mineral va aralashma changlar mavjud. Changning zararli ta`sirining tavsifi asosan uning

kimyoviy tarkibiga bog`liq. **Changning kattaligi (ya`ni dispers tarkibi bo`yicha uch guruhga bo`lib qaraladi:**

a) kattaligi 10 mkm dan katta bo`lgan changlar **yirik changlar** deb ataladi. Odatda bunday changlar o`z og`irligi ta`sirida yerga qo`nadi;

b) kattaligi 10 mkm dan 0,25 mkm gacha bo`lgan changlar. Bu changlarni **mayda changlar yoki mikroskopik changlar** deb yuritiladi. Ular yerga ma`lum ijobiy sharoitlar bo`lganda, masalan, yomg`ir, qor va shabnam kabi yerga yog`ilayotgan og`ir zarralarga ilashib qo`nishi mumkin;

v) kattaligi 0,25 mkm dan kichiq bulgan changlar **ultra mikroskopik changlar** deb yuritiladi va bu changlar hech qachon yerga qo`nmay, betartib harakat qilib, uchib yuradi.**Nafas olish organlarining individual himoya vositalari.** Nafas olish organlari filtrlovchi va izolyasiyalovchi individual himoya vositalari yordamida himoyalanadi. Filtrlovchi individual himoya vositalari hajm bo`yicha nafas olinadigan havoda kislorod 18 % dan kam bo`limganda va zararli moddalar konsentrasiyasi cheklanganda qo`llaniladi.

Nafas olish organlarini himoyalovchi vositalarning filtrlovchi elementlari maxsus FPS-15 yoki FPP-70 materiallaridan tayyorlanadi. Nafas olish organlarini himoyalashda changga qarshi respiratorlar (lepestok, Astra-2, F-62SH, F-62SHM, U-2k, RP-K) dan va gazga qarshi RU-60M, RPG-67 respiratorlaridan keng foydalaniladi.

Changga qarshi respiratorlar aerozollarning ruxsat etilgan eng kam konsentrasiyasi 200 gacha bo`lganda foydalaniladi. Gazga qarshi respiratorlar gaz va bug`larning ruxsat etilgan eng kam konsentrasiyasi 15 gacha bo`lganda ishlatiladi.

**Teri qoplamasini himoyalash.** Insonning teri qoplamasini himoya qilish uchun maxsus ust kiyim, oyoq kiyim, qo`lqop, maxsus himoya maz va pastalardan foydalanadi. Funksional belgilanishi bo`yicha maxsus ust kiyimlar kislotadan, neftdan, changdan, zahardan, elektrdan himoya qiluvchi bo`ladi.

Oyojni himoya qilish uchun teridan, rezinadan, plastmassadan va kigizdan tayyorlangan oyoq kiyimlardan foydalaniladi. Qo`lni himoya qilish

uchun brezent, yung, paxta, rezina, teri, asbest va kapron materiallardan tayyorlangan qo'lqoplar ishlataladi.

### **Sexlarni shamollatish, havoni mo'tadillash va isitish**

Shamollatish ishlab chiqarish xonalaridagi havoni keragicha almashtirishni ta'minlaydi va ishlovchilar hamda texnologik jarayonning borishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Havoning harakatlanish usuliga ko'ra tabiiy va mexanik shamollatishlar bo'ladi. Tabiiy shamollatishda xonaga havo tabiiy kuchlar- gravitatsion (issiqlik) va shamol bosimi ta'sirida kiradi. Gravitatsion bosim sovuq va issiq havoning solishtirma og'irlikdagi farq natijasida yuzaga keladi.

Mexanik usulda shamollatishda havo ventilyatorlar yordamida kiritiladi va chiqariladi.shamollatish tizimlari vazifasiga ko'ra yangi havo kiritiladigan va eski havoni chiqaradigan turlarga ajratiladi. Ular havoni umumiy yoki mahalliy tarzda almashtirishi mumkin. Kiritiladigan tizimlar esa ifloslangan havoni chiqarib yuboradi. Kiritib-chiqaradigan tizim yuqorida aytilgan har ikki tizimning birikmasidan iborat bo'lib, eski havoni chiqarib, o'rniga yangi havo kiritadi.

Doim shchilar bo'ladigan, halokat yuz berganda yoki texnologik jarayon buzilganda to'satdan ko'p miqdorda zararli yoki zaharli gaz va bug'lar paydo bo'lishi mumkin bo'lган ishlab chiqarish xonalariga halokatda shamollatish qurilmalari o'rnataladi.

Halokatda shamollatish qurilmasi doimiy shamollatish qurilmasiga qo'shimcha qilingan bo'lib, chang, gaz va bug'lar konsentratsiyaga qadar yoki portlashning quyi chegarasidan kam miqdorgacha kamaytirishga mo'ljallangan

## **Gazlamaning o'ng va teskari tomonini aniqlash.**

### **Amaliy dars ishlanmasi.**

**Mashg`ulot mavzusi:** Gazlamaning o'ng va teskari tomonini aniqlash.

Mashg`ulot maqsadlari:

**Ta`limiy:** O'quvchilarga gazlamaning o'ng va teskari tomonini aniqlash haqida bilim va ko`nikmalarni o`rgatish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilish, mehnatga ma'suliyat va ijodiy yondashishga hamda tozalikka rioxasi qilishni o`rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarni mustaqil holda gazlamani tahlilini to'g'ri va tez bajarishga, ijodiy qobiliyatini shakllantirish.

**Mashg`ulot shakli:** kichik guruhlarda va yakka holda ishlash.

**Mashg`ulot o`tish joyi:** o'quv xonasi

**Didaktik vositalar:** slaydlar,doska va plakatlar,mato bo'laklari.

**Darsning boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi:** chizmachilik,yigiruv texnologiyasi,to`quvchilik texnologiyasi.

### **Mashg`ulotning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism-15 daqiqa**

Salomlashish,ish o`rinlarini va sanitariya-gigiyena holatini ko`zdan kechiradi. Mavzuga oid hikoya aytib beradi. Shu bilan u talabalarga motivatsiya uyg`otadi. Mashg`ulot o`tishdan oldin reja bilan tanishtiriladi.

#### **Reja:**

1. Gazlama va gazlamaning o'riliishi haqida tushuncha.

2. Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarining farqi.

3.. Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarini aniqlash yo'llari.

#### **8. II. Asosiy qism-60daqiqa**

Talabalar turli xil shaklga ega bo`lgan kartochkalarni tortib,o`z guruhlarini aniqlaydilar. Har biri 4-5 kishidan iborat kichik guruhlar

mashg`ulotdan kutiladigan natijalar, uni tashkil etish va o`tkazish tartibini tushuntiradi. O`quvchilarga baholash mezonlari e`lon qilinadi. O`qituvchi talabalargamashg`uotning umumiy mazmuni va uni o`tkazish tartibini tushuntiradi. Mashg`ulot “4 pog’onali” metod va ijodiy topshiriqlarni qo’llab o’tkaziladi. “4 pog’onali metod” quyidagicha amalga oshiriladi.

**1** –pog’onada amaliyot o’qituvchisi mavzuga qiziqtirish uyg’otish maqsadida talabalarga gazlanamaning tarixi, ularning o’rilishi haqida ma’lumat beradi.

**2**-pog’onada har xil mato bo’laklarini namoyish qiladi. Ularning o’ng va teskari tomonlarini tushuntirib beradi.

**3**-pog’onada talabalar ko’rsatilgan tarzda qaytarishadi. O’qituvchi ularni atolarini tuzatadi.

**4**-pog’onada boshqa mato bo’laklari o’quvchilarga beriladi. Ular mustaqil ravishda gazlanamaning o’ng va teskari tomonini aniqlashadi.

### **III Yakuniy qism -15 daqiqa**

Darsning oxirida ularga guruhlari bilan birgalikda krossvordni bajarishlari buyuriladi. O`qituvchi esa talabalarni yo`qlama qilib. Jurnalni imzolaydi. So`ngra berilgan topshiriqnini tekshirib, guruhlarning to`plagan ballarni e`lon qiladi. G`olib guruh rag`batlantiriladi. Bajarilgan ishlarning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi, yo`l qo`yilgan xatoliklar sabablari aniqlanadi hamda bartaraf etish yo`llari tushuntiriladi. “odamlarga baho bera olasizmi?” psixologik test o’tkaziladi. Uyga bajarish uchun topshiriqlar beriladi.

### **Motivatsiya metodi**

Mashg`ulotlar ta`lim oluvchilar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo`limgan mavzular to`g`risidagi suhbat bilan boshlanishi lozim. iloji bo`lsa, darsga bog`liq bo`lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. masalan, qiziqarli kashfiyot yoki yangilik tanlanishi mumkin. bularning barchasi birinchi dars mobaynida ta`lim oluvchilarning kayfiyatiga, shu sohaga

qiziqishiga yoki keyingi darslarda ta’lim oluvchilar o`rganadigan faniga e`tiborini qaratishga yordam beradi.

**4 pog’onali metod.** – amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish jarayonining to’rt pog’ona doirasida kechadigan metodidir.

Bu metod ta’lim oluvchilarga bir xilda takrorlanadigan qo’l ko’nikmalarini tez va mukammal o’rganib olishlariga yordam beradi. “To’rt pog’onali” metod qo’llanilganda, ta’lim oluvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so’ng uni takrorlaydilar va to mukammal o’zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu metod quyidagi bosqichlardan iborat:

- tushuntirish;
- nima qilish kerakligini ko’rsatib berish;
- ko’rsatilgan tarzda qaytarish;
- mashq qilish.

Muhandis-pedagog faoliyati:

- tushuntirish;
- ko’rsatib berish;
- xatolarni tuzatish;
- baholash.

Ta’lim oluvchi faoliyati:

- tinglash;
- kuzatish;
- takrorlash;
- mashq qilish.

**“To’rt pog’onali” metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. “Tushuntirish” bosqichida muhandis-pedagog ta’lim oluvchilarga avval oddiy operatsiya bosqichini tushuntirib beradi.
2. “Nima qilish kerakligini ko’rsatib berish” bosqichda muhandis-pedagog ta’lim oluvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko’rsatib beradi.

3. Uchinchi bosqichda ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog ko'rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarini to'g'rilib turadi.
4. "Mashq qilish" bosqichida ta'lim oluvchilarining hatti-harakati muhandis-pedagog tomonidan nazorat qilib boriladi. Ta'lim oluvchilar ish amallarini mukammal o'zlashtirganlaridan so'ng, uni mustaqil bajaradilar.

"To'rt pog'onali" metodning asosiy belgisi-ta'lim oluvchilarining harakatlari muhandis-pedagog ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganlidadir.

"To'rt pog'onali" metodning afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

## Amaliy darsning texnologik xaritasi

Dars bosqichni	Vaqt (daq.)	Ta'lim metodlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Tashkiliy qism	15	Motivatsiya	<p>1.1. Talabalarning darsga tayyorgarligini tekshiradi. Mavzuning maqsadi va vazifalarni e'lon qiladi, tushuntiradi.</p> <p>1.2. Mavzuga motivastiyani uyg'otadi. Mavzuga kirish uchun talabalarning dastlabki bilimlarni faollashtiradi. Mavzuga oid qiziqarli hikoya aytib beradi.</p>	<p>Tinglaydi, savollar beradi, tushunmagan joylarini o'qituvchidan so'raydi.</p> <p>Tinglaydi, asosiy ma'lumotlarni o'zida qayd etib, yozib oladi, tushunmagan joylarini o'qituvchidan so'raydi.</p>
2. Asosiy qism	60	Kichik guruhlarda ishlash.	2.1. Har biri 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarni kartochkalar orqali (1-ilova) shakllantiradi. Har bir kichik guruhga turli xil gazlamalarni beradi (2-ilova)	Kichik guruhlar berilgan tushunmagan holatda o'qituvchiga murojaat qiladi. Daftariga tegishli ma'lumotlarni yozadi.
		4 pog'onali metod	2.2. Shakllangan guruhlarga gazlamalar(2-ilova) tarqatilgach, vazifa talabalarga tushuntiradi. buni talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Javoblarni umumlashtiradi, xulosalaydi.	Munozarada ishtirok etadi. Boshqa talabalar fikrini tinglaydi, savollar beradi, javoblarini asoslaydi.
			2.3.Kichik guruhlarga gazlamalarni berib, ularning o'ng va teskari tomonini farqlarini tushuntiradi. 2.4 ko'rsatilgan tarzda qaytarishini aytadi. 2.5 yangi mato bo'laklarini beradi va ularning o'ng va teskari tomonini aniqlash vaziasini beradi.	Kichik guruhlar berilgan topshiriqga egallagan bilim,ko`nikma va malakalarini qo'llab javob beradilar. Tushunmagan holatda o'qituvchiga murojaat qiladi. [16,22]

3.Yaku niy qism	5	Krossvord ; psixologik test	<p>3.1.Mavzu bo'yicha o'quv maqsadlarini eslatib o'tadi, talabalarga krossvordni bajarishni aytib bilimlarini tekshiradi. mavzuga oid qo'shimchalar, to'ldirishlarni bayon qiladi. O'quvchilar bilan birgalikda psixologik testni bajarishadi. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani amalga oshiradi. Berilgan savollar bo'yicha kichik guruhlarni baholaydi. G'olib guruhnini e`lon qiladi.O'z fikr va mulohazalarini bildiradi. Har bir kichik guruh uchun mustaqil ish topshiriqlarini beradi (3-ilova).</p>	Tinglaydilar,krossvord ni yechadilar.bilimlarini mustahkamlaydilar. savollar beradi, yangi ma'lumotlarni daftariga qayd qiladi. O'quvchilar mustaqil ish topshiriqlarini yozib oladilar.
-----------------	---	-----------------------------	---	--

### **Gazlamaning o'ng va teskari tomonini aniqlash mavzusida o`qitish texnologiyasi**

<b>O'quv vaqtı - 2 soat</b>	<b>O'quvchilar soni:</b> 10-25 kishi
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy dars rejasi:</b>	<p><b>1.</b> Gazlama va gazlamaning o'riliishi haqida tushuncha.</p> <p><b>2.</b> Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarining farqi.</p> <p><b>3..</b> Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarini aniqlash yo'llari.</p>
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> Mavzu bo'yicha o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan bilimlarni shakllantirish, o'quvchilarda izlanuvchanlik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.	
<b>Pedagogik faoliyat</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari</b>
<b>O'qituvchi:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Gazlama haqida umumiy tushunchalarni berib o'tadi;</li> <li>- gazlama o'riliشining turlarini tavsiflab berish;</li> <li>- kichik guruhlarga i ajratish</li> <li>- 4 pog'onali metod va krossvordlar orqali talabani qiziqtirish;</li> <li>- o'quvchilarga krossvordning yechimi yo'llari, usullari</li> </ul>	<b>O'quvchi:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzuning mohiyati bo'yicha tushuncha berish;</li> <li>- Asosiy o'riliшlar va ularning farqini aytib bera olish;</li> <li>- Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarining farqini o'rganish;</li> </ul>

izlash va topish imkoniyatlarini yaratish; - o'quvchilarda izlanuvchanlik va ijodiy fikrlashni shakllantirish.	
<b>Ta'lismetodlari</b>	4pog'onali metod, motivatsiya, krossvord, kichik guruhlarda ishlash
<b>Ta'livositalari</b>	Ma'ruza matni, slaydlar, tarqatma materiallar, vizual materiallar, kompyuter, ekran, proektor, virtual ko'rgazmalar va hokazo.
<b>Ta'lismakallari</b>	Jamoada, kichik guruhlarda yoki juftliklarda ish.
<b>Ta'lismasharoitlari</b>	Zamonaviy didaktik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitiga ega bo'lgan auditoriya.
<b>Baholashmetodlari va mezonlari</b>	Og'zaki savol-javob; krossvord, savol, topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari.

### Gazlamaninig o'ng va teskari tomonini aniqlash.

**Reja:**

1. Gazlama va gazlamaning o'riliishi haqida tushuncha.
2. Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarining farqi.
3. Gazlamaning o'ng va teskari tomonlarini aniqlash yo'llari

Tikuvchilik gazlamalarining tuzilishi tanda va arqoq iplarining o'zaro o'riliishi va bog'lanishi bilan belgilanadi. Tikuvchilik gazlamalarining tashqi ko'rinishi, xossalari va ishlatalishi uning tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

Gazlamaning tuzilishini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri zichligi bo'lsa, ikkinchisi ularning o'rilihidir. Gazlamalarning zichligi uning uzunlik birligiga, odatda 100 mm ga to'g'ri keladigan iplar soni bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkich

haqiqiy zichlik deb ataladi va tanda bo'yicha Z<sub>t</sub> hamda arqoq bo'yicha-Z<sub>a</sub> deb belgilanadi. Gazlamalarning tanda va arqoq bo'yicha zichligi bir-biridab farq qilsa, bunday matolar zichligi notekis gazlama deb, bir biriga teng bo'lsa, zichligi bir tekis gazlama deb ataladi. Odatad matolarda tanda bo'yicha zichlik arqoq bo'yicha zichlikka qaraganda kattaroq bo'ladi. Lekin ba'zi matolarda (satin, poplin kabi) aksincha bo'lishi ham mumkin.

Haqiqiy zichlik gazlamani hosil qiluvchi iplarning yo'g'onligiga bog'liq. Gazlamalarni zichlik bo'yicha taqqoslash uchun maksimal va nisbiy zichlik tushunchalari kiritilgan. Gazlamalarning maksimal zichligi shunday shartli zichlikki, unda barcha iplarning diametri bir xil va ular bir-biriga bir tekis tegib turadi deb qabul qilingan.

Nisbiy zichlikni ifodalovchi raqam gazlamalarning iplar bilan to'lganlik darjasini haqida tasavvurga ega bo'lishga va matoning zichligini taqqoslab ko'rishga imkon beradi. Nisbiy zichlik yuqori bo'lgan gazlamalarni tikish og'irroq, chunki igna iplarni uzib yuborishi mumkin. Bunday gazlamalarni dazmollash ham qiyin, chunki zichligi oshib ketsa,gazlama og'irlashadi, qattiqlashadi. Biroq matolarning uzilish va ishqalanishga chidamliligi oshadi, havo o'tkazuvchanligi kamayadi. Nisbiy zichligi kichik bo'lgan matolar yengil bo'ladi, havo va bug'ni yaxshi o'tkazadi. Ulardan tikilgan buyumlarning choklari puxta bo'lmaydi, bunday matolar har tomonga osongina cho'ziladi hamda bichish va tikish paytida qiyshayib ketedi.

Matolarning o'riliши deb, tanda va arqoq iplarining ma'lum tartibda o'zaro bog'lanishiga aytildi. Tanda va arqoq iplarining o'riliшini ko'rsatuvchi shaklga o'riliш naqshi deyiladi.

O'riliш jarayonida hosil bo'lувчи naqshning takrorlanishi rapport (R) deb ataladi. Tanda ipi matoning sirtiga chiqib arqoq ipining ustini qoplashi tanda qoplanishi deb ataladi. Arqoq ipi matoning sirtiga chiqib tanda ipining ustini qoplashi arqoq qoplanishi deb ataladi.

Matolar o'riliши katak qog'ozga chiziladi. Bunda har qaysi ko'ndalang qator arqoq iplari deb, har qaysi bo'ylama qaotor tanda iplari deb qabul

qilingan. Har bir katak tanda va arqoq iplarining kesishuvidan iborat. Bu joyda tanda qoplanishi bo'lsa, o'riliш naqshni chizish paytida katak bo'yab qo'yiladi. Agar arqoq qoplanishi bo'lsa katak oqligicha qoldiriladi.

Matolar o'riliши bo'yicha quyidagicha sinflanadi:

1. Oddiy yoki bosh o'riliшlar
2. Mayda gulli o'riliшlar
3. Murakkab o'riliшlar
4. Yirik gulli jakkard o'riliшlar

Oddiy yoki bosh o'riliшlar. Oddiy o'riliшlar sinfiga polotno, sarja va satin(atlas) o'riliшlari kiradi.

Barcha oddiy o'riliшlarga xos umumiy xususiyatlar shundaki, tanda bo'yicha rapport arqoq bo'yicha rapportga teng bo'ladi, bitta rapport ichida har bir tanda ipi faqat bir martagina o'riliшadi.

Polotno o'riliши- to'quvchilik matolari ichida eng oddiy va ko'p tarqalgan bo'lib, tanda va arqoq bo'yicha rapporti ikki ipga teng. Rapportda tanda va arqoq iplari navbatma-navbat matoning o'ng tomoniga chiqadi.

Masalan, toq tanda iplari toq arqoq iplari ustidan qoplab o'tsa, juft tanda iplari juft arqoq iplari ustidan qoplab o'tadi. Polotno o'riliшda tanda iplari arqoq iplari bilan juda yaxshi bog'lanadi, natijada matolar mustahkam, o'ng va teskarisi bir xil, tekis va sutrang bo'ladi.

Agar polotno o'riliшda tanda iplari arqoqga qaraganda ingichka bo'lsa, matoda ko'ndalang yo'llar hosil bo'ladi(poplin,tafta va bosgq matolar). Bunday o'riliшlar soxta reps deb ataladi.

Polotno o'riliши ip matolari (chit, batist, polotno va boshqalar), zig'ir tolali matolari (bortovka, polotno, parusinava boshqalar), ipak matolari (krepdeshin, krepshifon,polotno va boshqalar), jun matolari (bazi koylaklik va kostyumlik marolar) to'qishda ishlatiladi.

Sarja o'riliшli matolarning o'ziga xos tomoni shundaki, ularning o'ng tomonida diogonal bo'ylab ketgan yo'llar bo'ladi. Bu diogonal yo'llari

matolarning o'ngida, odatda, chapdan o'ng tomonga, pastdan yuqoriga ba'zan esa o'ngdan chaoga qarab ketadi (chap sarja). O'ng sarja o'riliishi ko'proq ishlatiladi. Sarja rapportidagi iplar soniga hamda tanda va arqoq iplarining zichligiga qarab sarja o'rilihidagi yo'llarning qiyalik qiyalik birchagi har xil bo'lishi mumkin. Agar tanda va arqoq iplarining zichligi va yo'g'onligi bir xil bo'lsa, sarja yo'llarining qiyalik burchagi  $45^{\circ}$ ni tashkil qiladi.

Sarja o'riliشining tuzilishi quyidagilarga bog'liq:

1. Rapportdagi iplarning soni uchtadan kam bo'lmaydi:  $R_{min}=3$
2. Har bir tanda yoki arqoq qoplanish har mahal bitta ipga siljiydi:  $Z=1$ .

Ana shu siljish tufayli gazlama yuzasida dioganal paydo bo'ladi. Sarja o'riliшlari kasr bilan belgilanadi.uning suratida rapportning har qaysi qatordagi tanda qoplanishlarining soni, maxrajda arqoq qoplanishlarning soni ko'rsatiladi. O'riliшning rapportidagi iplar miqdori shu sonlarning yig'indisiga teng. Agar matoning o'ngida arqoq iplari ko'p bo'lsa, bu o'riliш tandali sarja o'riliш, agar matoning o'ngida arqoq iplari ko'p bo'lsa, bu o'riliш arqoqli sarja o'riliш deb ataladi. Tandali sarjalar 2/1, 3/1, 4/1 va arqoqli, yarim ipak matolar tandali sarja o'riliшda to'qiladi. Tandası paxta ip, arqog'ini jun ip tashkil qilgan yarim jun matolar arqoqli sarja o'riliшda to'qiladi.

Sarjali o'riliш bilan to'qilgan ip matolardan- jinsi, bumazeva, sarja, kashimer; jun matolardan- triko, kashimer va yana bir qator ko'ylaklik va kostyumlik matolarni; paxta tolalaridan- astarbop sarja, ko'ylaklik matolarni eslab o'tsa bo'ladi. Sarja o'riliшli matolar yumshoq, mayin, lekin polotno o'riliшli matolarga qaraganda mustahkamligi pastroq va dioganal yo'nalishida cho'ziluvchan bo'ladi.

Satin va atlas o'riliшdagi matolarning o'na tomoni silliq bo'ladi va tovlanib turadi, chunki bu o'riliшlarda tanda(atlas) yoki(satin) iplari cho'ziq qoplanishlar hosil qiladi. Satinning o'ngini arqoq qoplanishlar, atlasning o'ngini tanda qoplanishlar hosil qiladi.

Satin (atlas) o'rilihlari kasr bilan belgilanadi. Suratda o'rilihs rapportining miqdori, maxrajda-siljish soni ko'rsatiladi. Demak, satinlar 5/2, 5/3, 8/3, 10/7 va hokazo deb belgilanadi.

Satin o'rilihi keng tarqalgan satin nomli paxta matosini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Atlas o'rilihi lastik, tik-lastik paxta matolari, satin-dubl, xonatlas va boshqa ipak matolar, ko'pgina astarlik ipak va yarim ipak matolarni ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Mayda gulli o'rilihlar. Mayda gulli o'rilihlar sinfi ikki guruhgga bo'linadi:

1. Oddiy o'rilihlarni o'zgartirish va murakkablashtirish yo'li bilan hosil qilingan hosila o'rilihlar guruhi;
2. Oddiy o'rilihlarni aralashtirish yo'li bilan hosil qilingan aralash o'rilihlar guruhi.

Hosila o'rilihlar. Polotno o'rilihlardan olingan hosila o'rilihs jumlasiga reps va rogoikalar kiradi.

Reps o'rilihi tanda yoki arqoq qoplanishlarni uzaytirish yo'li bilan hosil qilinadi. Bu o'rilihlarda har qaysi tanda yoki arqoq ipi ikki, uch va undan ko'p arqoq yoki tanda ipi tagidan o'tishi mumkin. Natijada, tandali yoki arqoqli reps o'rilihi yuzaga keladi. agar iplar turkumidan ikkinchisiga nisbatan yo'g'on bo'lsa, reps o'rilihsda mato sirti silliq chiqadi.

Reps o'rilihsda reps degan ip va ipak matolari, flanel ip matosi va boshqalar ishlab chiqariladi.

Rogoika o'rilihi ikki yoki uchtalikpolotno o'rilihi bo'lib, tanda va arqoq qoplanishlari birdaniga kuchaytirilganidan hosil bo'ladi. Rogoika o'rilihdagi matolar polotno o'rilihdagi matolar polotno o'rilihdagi matolarga nisbatan yumshoqroq va zichligi kattaroq bo'ladi. Paxta va zig'ir iplaridan rogoika o'rilihsida rogoika nomli matolar, jun va ipak iplaridan ba'zi ko'yaklik va kostyumlik matolar ishlab chiqariladi.

Hosila sarja o'rilihlari kuchaytirilgan sarja, murakkab sarja, teskari sarja, siniq sarja va boshqalardan iborat. Kuchaytirilgan sarja oddiy sarjadagi yakka qoplanishlarni kuchaytirib olinadi.natijada,mato sirtidagi dioganal yo'llar enliroq va yaqqolroq bo'ladi.mato o'ngida qaysi ip turkumi ko'pligiga qarab, juchaytirilgan sarjalar tandali, arqoqli va teng tomonli bo'ladi.

Kuchaytirilgan sarja o'rilihida shollandka, boston, sheviot, kashemir kabi jun va boshqa matolar to'qiladi.

Murakkab sarja bir necha oddiy yoki kuchaytirilgan sarjalarni bitta rapportga joylashtirganda hosil bo'ladi. Bu o'rilihda to'qilgan matolar sirtida turli kemglikdagi dioganal yo'llar hosil bo'ladi. Bu o'rilih ko'yaklik matolar to'qishda qo'llaniladi.

Oddiy, kuhyatirilgan va myrakkab sarjalar asosida siniq sarjalar asosida siniq sarja hosil bo'ladi.bu yarda dioganal yo'llarining yo'nalishi o'zgaradi. Bu o'rilihdagi matolarning siniq chiziqsimon shaklda ko'rinish turadi.

Siniq sarjaga o'xshash yana bitta o'rilih bor. U teskari sarja deyiladi. Teskari sarjaning siniq sarjadan farqi shundaki, dioganal sinish joyida uning yo'li bo'ylama bo'yicha suriladi. Natijada arqoq qoplanishlari bo'ladi va aksincha.

Hosila satin o'rilih kuchaytirilgan satin deb ataladi. U oddiy satinda yagona bo'lgan qoplanishlarni kuchaytirib tuziladi. Rapport va siljish miqdori o'zgarmaydi. Bu o'rilihda ip matolardan moleskin,zamsha, velviton, movut, ipak matolardan yuqori sifatli astarbop satin-dubl degan matolar to'qiladi.

Aralash o'rilihlar jumlasiga jilvali, bo'rtmali, bo'yamasiga yoki eni bo'yicha yo'l-yo'lli o'rilihlar kiradi.

Jilvali o'rilihning o'ziga xos tomoni shundaki, mato o'ngida cho'ziq qoplanishlarbetartib tarqalgan bo'lib, ular matoda mayda donli sirt hosil qiladi. Jilvali o'rilihlarni rapporti teng bo'lgan o'rilihni ustma-ust qo'yish yoki rapportlari teng bo'lmanan bir necha o'rilihlarni qo'shish yo'li bilan hosil

qiladi. Bu o'riliishlar xilma -xil paxta, zig'ir, jun va ipak tolali ko'yaklik matolarni to'qishda qo'llaniladi.

Murakkab o'riliishlar. O'z tuzilishiga ko'ra ikkitadan ortiq ip turkumini talab qiluvchi o'riliishlar myrakkab o'riliishlar sinfiga kiradi. Ular tukli, ikki tomonli, ikki qavatli, qopsimon va peki o'riliish turlariga bo'linadi.

Tukli o'riliishda to'qilgan matolarning o'ngida qirama yoki halqali tik tuklar bo'ladi. Ular yaxlit yoki kengligi har xil yo'llar tarzida naqshdor bo'ladi. Tukli o'riliishlarni hosil qilish uchun uchta ip turkumi ishlatiladi: bittasi- tuk hosil qilish uchun; ikkitasi matoning asosini hosil qilish uchun. Tuk hosil qiluvchi ip turkumiga ko'ra tukli o'riliishlar ikki turga bo'linadi. Tukni hosil qilish uchun tanda iplari ishlatilsa, tanda tukli o'riliish, arqoq iplari ishlatilsa- arqoq tukli o'riliish deb ataladi.

Tanda tukli o'riliish ipak matolari- baxmal, duxoba to'qishda ishlatiladi. Arqoq tukli o'riliish ip matolari- varim baxmal, velvet, ip duxoba ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Tukli o'riliishning yana bitta turi- halqali tukli o'riliish. Bu o'riliishda tuklar halqalar tarzida bo'ladi. Sochiqlar, choyshablar, xalatlar uchun matolar, ba'zi bezak matolar shunday o'riliishda to'qiladi.

Ikki tomonli o'riliishlar uchta ip turkmi- ikkita tanda va bitta arqoq, yoki bitta tanda va ikkita arqoq iplaridan hosil bo'ladi. Bu o'riliishlar asosan, paltolik drap matolarni to'qishda ishlatiladi. To'qishda qo'llanilgan qo'shimcha iplar turkumi draplarning qalinligi zichligi va issiqni saqlash xossalalarini yaxshilaydi. Undan tashqari, qo'shimcha ip turkumi sifati pastroq bolgan iplarni ishlatish imkoniyati borligi tufayli matolarning narxi ham arzonroq bo'ladi.

Ba'zi draplarni to'qish uchun ikki qatlamlı o'riliishlar qo'llaniladi. Ularni hosil qilishda to'rt yoki beshta ip turkumi ishlatiladi. Bunday o'riliishda to'qilgan matolar ikki alohida matodan iborat bo'lib, bu matolar o'zaro to'rt ip turkumidan biri bilan yoki qo'shimcha beshinchi turkum bilan birlashtiriladi. Ikki qatlamlı o'riliishda to'qilgan matolarning o'ngi va teskarisi sifatli va tola tarkibi har xil iplardan bo'lishi, o'ngi sidirg'a, teskarisi esa katak-katak yoki

yo'l-yo'l guldor bo'lishi yoki ikala tomoni sidirg'a, lekin turli rangda bo'lishi mumkin.

Yirik gulli o'riliishlar. Yirik gulli o'riliishdagi matolar to'quv dastgohlardagi jakkard mashinalar yordamida ishlab chiqariladi. Bunday o'rilihlarning rapporti bir necha yuz ming ipdan iborat bo'lishi mumkin. Ya;ni har bir iplar guruhi ma'lum tartibda boshqa iplar bilan o'riliishadi. Bunday o'riliishdagi naqshlarning shakli, o'simliklarning rasmi, gul dastgohlari, geometrik naqshlar turlicha bo'ladi. Turli matolar, gilamlar, gobelinlar, dasturxon va boshqa buyumlar yirik gulli o'riliishda to'qiladi. Yirik gulli o'riliishlar oddiy va murakkab xillarga bo'linadi. Oddiylari ikki, murakkablari esa uch va undan ko'p ip turkumlaridan iborat bo'ladi.

**Baholash mezonlari.** Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

## **Baholash mezonlari**

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>O`quvchilarning bilim darajasi</b>
86-100%	A`lo	Gazlama haqida tushunchaga ega bo`lish; Gazlamaning o`rilibshlarini farqlay olish; Mato turlarini farqlay bilishi; Gazlamining o'ng va teskari tomoni farqlay olishi;
71-85%	Yaxshi	Gazlama haqida tushunchaga ega bo`lish; Gazlamaning o`rilibshlarini farqlay olish; Mato turlarini farqlay bilishi;
56-70%	Qoniqarli	Gazlama haqida tushunchaga ega bo`lish; Gazlamaning o`rilibshlarini farqlay olish;
0-55%	Qoniqarsiz	O`rilibshlar haqida umuman bilimga ega emas; Gazlamaning tomanlarini farqlay bilmaslik.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010. -80b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. T.:O'zbekiston, 2005 y.-56 b.
3. P.T. Bukaev «Spravochnik xlopkotkachestva». M., Legkaya industriya, 1987.-575 s.
4. V.V. Shirokov «Spravochnik po xlopkopryadeniyu». M., Legkaya i pishivaya promishlennost, 1969.-461 s.
5. N.N.Milovidov. Proektirovanie xlopkopryadilnix fabrik. M., Legkaya i pishivaya promishlennost. 1981.-302 s.
6. B.A. Azimov “Paxta yigirish fabrikalarini loyixalash”. T.: O'zbekiston, 1995. -228b.
7. Marasulov Sh.R. «Paxta va kimyoviy tolalarmi yigirish» 1 qism. T.: O'qituvchi, 1979.-250 b.
8. Marasulov Sh.R. «Paxta va kimyoviy tolalarmi yigirish» 2 qism. T.: O'qituvchi, 1985.-334 b.
9. Maltseva Ye.P. Tikuvchilik materialshunosligi. T.: 1986.-232 b.
10. A.V.Tereshnev. Osnovi proektirovanie xlopkopryadilnix fabrik. M.:Legkaya industriya, 1970.-392 s.
11. Giyosova D.R. To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (1-qism) ma`ruza matni.- Buxoro.: Texno-tasvir, 2012.-54 b.
12. Xamraeva S.A To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (2-qism) ma`ruza matni.- Buxoro.: Texno-tasvir, 2012.-34 b.
13. Xamraeva S.A. To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (2-qism) kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma.- Buxoro.:Texno-tasvir, 2012.-34b.

14. Giyosova D.R. To'qimachilik korxonalarini loyixalash fanidan (1-qism) kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma.- Buxoro.:Texno-tasvir, 2012.-55b.
15. Xamraeva S.A. «To'qvchilik texnologiyasi» T.:Fan, 2005.-335 b.
16. Nikolaev S.D., Xasanov B.K., Sodikova N.R. Iplarni to'qishga tayyorlash jarayonlari nazariyasi va texnologiyasi. T:O'zbekiston, 2005.-197 b.
17. Xamraeva S.A., Xodjiev M.T. To'qimachilik gazlamalarining umumiy texnologiyasi. T.: Ilm ziyo, 2006.-229 b.
18. Olimboyev E.Sh. va bosh. “Gazlamalarni tuzilishi va tahlili”. T.:2003.-165b.
19. Tekstil naya promo'shennost jurnallari
20. Texnologiya lyogkoy promishlennosti jurnallari
21. Internet saytlari:
  - [www.paxta.com](http://www.paxta.com).
  - [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz).
  - [www.textileclub. Ru](http://www.textileclub.Ru)
  - [www.rieter.com](http://www.rieter.com)
  - [www.truetzchler.com](http://www.truetzchler.com)